

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**Filologiya fakulteti
O`zbek tilshunosligi kafedrası**

BOYMIRZAYEVA SOHIBA

FE'L SO'Z TURKUMINING O'RGANILISH TARIXI

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Bitiruv-malakaviy ishi

Ilmiy rahbar

Sh.Normo'minov

SAMARQAND - 2017

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Filologiya fakulteti
O`zbek tilshunosligi kafedrası**

BOYMIRZAYEVA SOHIBA

FE'L SO'Z TURKUMINING O'RGANILISH TARIXI

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

Sh.Normo'minov

Rasmiy taqrizchi

dots.D.O'rinboyeva

Bitiruv-malakaviy ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2017-yil ____-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan(____-son bayonnoma).

Kafedra mudiri

prof.S.Karimov

Bitiruv-malakaviy ishi YaDAKning 2017-yil ____-iyundagi majlisida himoya qilingan va ____ ball bilan baholangan(____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

prof.N.Jabborov

A'zolari:

Mavzu: Fe'l so'z turkumining o'rganilish tarixi

Reja:

KIRISH.

**I BOB. FE'L SO'Z TURKUMINING DIAKRONIK ASPEKTD
O'RGANILISHI.**

1.1 VII-XIV asrlarda fe'lining tarixiy taraqqiyoti.

1.2. XV-XIX asrlarda fe'lining o'rganilishi.

II BOB. FE'LNING SINXRON TILSHUNOSLIKDA ILMIY TADQIQI

2.1. O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumi A.Hojiyev talqinida

2.2. Hozirgi o'zbek tilshunosligida fe'lining o'rganilish masalalari

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Tilshunoslikda fe'l so'z turkumi bo'yicha juda ko'p ishlar qilingan. O'zbek tilshunosligining o'zida fe'lga xos barcha grammatik kategoriyalar bo'yicha, shuningdek barcha funksional formalar bo'yicha nomzodlik dissertasiyalari yoqlangan. Ana shuning o'ziyoq o'zbek tilshunosligida fe'l turkumining qay darajada keng o'rganilganini yaqqol ko'rsatib turadi. Biroq shunga qaramay, fe'l turkumida hali to'la hal etilmagan, munozarali masalalar, mohiyati yetarli ochilmagan hodisalar anchagina bor. Shu vaqtga qadar fe'l turkumiga oid grammatik kategoriyalar haqida qat'iy bir fikrga kelinmaganligining o'ziyoq fikrimizning dalili bo'la oladi. Bu narsa amaliy hayotda, ayniqsa, o'qish-o'qitish ishlarida ma'lum qiyinchiliklar tug'diryapti.

Fe'l so'z turkumining leksik-semantik va grammatik tabiatini yoritish o'zbek tilshunosligi sohasida 1940 yillarga qadar maktab darsliklari doirasida qisqa ma'lumotlar bilan chegaralanar edi. Bundan faqat prof.Ye.D.Polivanovning ishlarigina istisno edi. 40-yillardan boshlab maktab darsliklarida ham siljish ilmiylikka asoslanish, shu jumladan turkologiyaning yutuqlariga suyanish boshlandi. Oliy maktablar uchun darsliklar yaratilishi, ayniqsa o'zbek tilining birinchi . Demak, fe'l kategoriyasining ishlanishiga Ye.D.Polivanov, A.N.Kononov, V.V.Reshetov kabi taniqli olimlar o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar. Fe'l kategoriyasi ustidagi ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishida tilshunoslardan A.M.Shcherbak, S.M.Ivanov, A.Koklyanova, o'zbek tilshunoslaridan A.G'ulomov, A.H.Sulaymonov, A.Hojiyev, J.Jo'rayeva, Sh.Shukurov, G.Sh.Sharipov, S.A.Akbarov, E.Fozilov, R.Jumaniyozov, M.Shohnazarova va boshqa tilshunoslarning hissalarini katta.

Mavzuning dolzarbligi.

Fe'l boshqa so'z turkumlari ichida o'zining o'rganish obyekti kengligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun fe'l so'z turkumini o'rganishda biroz qiyinchilik yuzaga keladi. Chunki fe'lga xos barcha grammatik kategoriyalar, shuningdek

barcha funksional formalar o`rganuvchini biroz chalg`itishi mumkin. Fe`l so`z turkumi ustida ishlayotgan har bir tilshunos bu borada qilingan ishlar bilan yaqindan tanishishi juda muhimdir.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari.

Ilmiy izlanishning natijasi har bir ilmiy ish qilayotgan tadqiqotchi uchun juda muhim hisoblanadi. Bu esa o`z navbatida bir qancha mas`uliyatlarni yuklaydi. Chunki qilinayotgan har bir ishga jiddiy yondashilmasa va aniq maqsadlar sari intilmas ekan bunday ishdan natija chiqishi juda qiyindir. Demak ilmiy izlanish natijasini aniq maqsadlar sari yo`naltirgan holda, ilmiy rahbarim o`qituvchi Sherzod Normo`minovning ilmiy maslahatlari, ko`rsatmalari va amaliy yordami natijasi o`laroq ilmiy izlanishim oldiga quyidagilarni maqsad qilib qo`ydim:

- Ilmiy izlanish mavzusini atroflicha yoritish;
- O`zimning ilmiy salohiyatimni yanada oshirish;
- Fe`l so`z turkumini o`rganadigan talabalarga ilmiy tomondan yordam bera oladigan ilmiy ommabob qo`llanma tuzishga asos yaratish;
- Ilmiy ish mavzusi bugungi kunda naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor tadqiq etish;
- Fe`lning o`ziga xos xususiyatlarini ma`lum doirada yoritish;
- Fe`lni o`rganuvchilarga ko`maklashuvchi asosiy dasturga qo`shimcha qo`llanma sifatida foydalana oladigan dastur yaratish;

Quyidagilarni amalga oshirish va kutilgan natijalarga erishish oson ish emas. Maqsad aniq bo`lsa, unga erishish yo`llari va usullari bir muncha osonroq kechadi. Birinchi Prezidentimiz ta`biri bilan aytganda “Aniq masqsadlar sari aniq vazifalar bilan yondashish kerak ”. Bu maqsadlarni bajarish uchun quyidagi vazifalar dastur qilib belgilab berildi.

- Ilmiy ish mavzusiga ilmiy yondashish;
- Ilmiy ishni yoritishda yangi ilmiy ommabop kitoblardan foydalanish;

- Ilmiy ish mavzusini yoritishda bevosita professor, fan doktorlari va o'qituvchilar fikr va mulohazalaridan foydalanish;

- Yangi adabiyotlarni kuzatib borish. Ularda e'lon qilingan maqolalardan unumli foydalanish;

- Ilmiy ish bo'yicha yangi va muhim fikrlarni ilmiy rahbar bilan o'rtoqlashgan holda tadqiqot ishini olib boorish;

- To'plangan har bir ma'lumotlarni ilmiy rahbar tavsiyasi bilan ilmiy ishga kirgizish va hokazolardan iborat.

Tadqiqot predmeti va ob'yekti.

Shu o'rinda tilshunos olimlarimiz tomonidan hozirga qadar fe'l so'z turkumini o'rganilishni yengillashtirish maqsadida bir qancha darslik va ilmiy kitoblar nashr ettirilganini barchamiz bilamiz. Mana shu kitoblarda nashr etilgan fe'lga oid muhim ma'lumotlarni tadqiq etish va ilmiy ish mavzusini keng yoritishda undan unumli foydalanish. Ilmiy tadqiqot mavzusi predmeti tildagi fe'l so'z turkumi bo'lib uning ifodalanishi, yasalishi, tilshunos olimlarimizning bu haqidagi qarashlari, ob'yekti esa fe'l turkumining ishlatilish holati hisoblanadi. Chunki quyidagi bayon etilgan maqsadlarga erishish va ilmiy tadqiqot mavzusini keng yoritishda ham bu kabi masalalarga yondashmasdan o'tishning iloji yo'q. Bu haqda ilmiy tadqiqot mavzusini yoritish davomida kerakli fikrlarni berib boramiz.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Tadqiqot nazariy jihatdan hali o'rganilmagan tomonlarini o'rganish ob'yektlari haqida ilmiy mushohadalar chiqarish va uni amaliy natijalarini keng o'rganuvchilar ixtiyoriga taqdim etish. Tadqiqot o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotning nazariy jihatdan naqadar ahamiyatli ekanligini har bir til o'rganuvchi juda yaxshi biladi. Chunki tilni o'rganuvchi uning muammo va yutuqli tomonlaridan ozgina bo'lsada xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham fe'l mavzusi har birimiz uchun ham ahamiyatlidir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati haqida quyidagilarni aytish asosli. Fe'lni o'rganuvchilariga amaliy yordam beruvchi o'quv uslubiy qo'llanma yaratish. Tadqiq etilgan sohani keng kitobxonlarga taqdim etish, uning yutuqli va kamchilik tomonlari haqida fikr mulohazalar almashish. Fe'l turkumning ahamiyatli ekanligini tadqiq etish, va hokazolardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish quyidagi holatda yozildi. Birinchi "Kirish" qismi, unda fe'lning o'rganilishi haqida qisqacha ma'lumot, fe'llarning o'rganilish tarixi va ahamiyati, o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligi, ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari, tadqiqot mavzusining predmeti va ob'yekti, tadqiqot metodlari, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati kabi masalalar haqida so'z yuritildi.

I BOB. FE'L SO'Z TURKUMINING DIAKRONIK ASPEKTDAGI O'RGANILISHI.

1.1 VII-XIV asrlarda fe'lining tarixiy taraqqiyoti.

Bizga ma'lumki, o'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumi ko'plab olimlarimiz tomonidan o'rganilgan va tadqiq etilgan. Ularning ishlarida qadimgi davrlardan to bugungi kunga qadar bo'lgan fe'l so'z turkimiga oid qarashlar jamlanganligini ko'ramiz. Fe'l so'z turkumi haqida o'zbek ilmiy tilshunosligiga qadar XI asr tilshunosi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Hos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarlari, "Hibbat-ul haqoyiq", "Devoni hikmat", "Tafsir", "O'g'uznoma", "Muhabbatnoma" va Navoiy, Bobur asarlarida ham anchagina ma'lumotlar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yodgorlik va asarlarda fe'lining barcha shakllari, Grammatik kategoriyalari haqida fikrlar jamlangan. Quyida biz mana shu qadimgi yodgorliklar va asarlarda uchraydiga fe'l haqidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tamiz.

Sh.Shukurovning "Fe'l tarixidan" nomli kitobida fe'lining mayl va zamon formalari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Hozirgi turkiy tillarda mayl va zamon formalarini o'rganishga bag'ishlangan bir qancha maqolalar, monografiyalar yaratilgan, lekin bu masala birozgina munozaraga sababchi bo'layotganligini olimlarimiz qayd qilishgan. Mayl va zamon formalari turli mualliflar tomonidan turlicha klassifikatsiya qilinib, har xil nomlar bilan ataladi. Turkologiyada mayl va zamon formalari tarixi yetarli darajada o'rganilmagan. Qadimgi yodgorliklar tilida iste'molda bo'lgan mayl va zamon formalarini o'rganish sohasida D. M. Nasilovning qadimgi uyg'ur tiliga oid matnlardagi indikativ formalari analiziga bag'ishlangan nomzodlik dissertasiyasidan tashqari monografik ish yaratilmagan. V. V. Radlov, P. M. Melioranskiy, Q. Brokkelman, A. Fon Gaben, I. A. Batmanov, V. M. Nasilov, S. M. Mutallibov, A. M. Shcherbak, E. I. Fozilov va boshqa avtorlarning qadimgi yodgorliklar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarida esa tekshirilayotgan

manbalar tilida uchraydigan mayl va zamon formolari haqida boshqa grammatik hodisalardan tashqari umumiy ma'lumotlar berilgan.¹

Ushbu asarda qadimgi yodgorliklar tilida mayl formalarini 3 guruhga bo'lish to'g'ri ekanligini ko'rsatib o'tadi va quyidagi uch guruhga ajratadi:

a) buyruq-istak mayli;

b) shart mayli;

v) aniqlik mayli.

Muallifning yozishicha, mayl va zamon formalarining yasalishi, qo'llanishi, ifodalagan ma'nolari bo'yicha tekshirilgan qadimgi yodgorliklar o'rtasida o'zaro o'xshashlik, birlik bo'lishi bilan birga, anchagina farqlar ham mavjud deydi. Masalan, o'tgan zamon fe'lining -yo'q/-yyk affiksi bilan yasalishi qadimgi uyg'ur tili yodgorliklari uchun xos bo'lib, o'rxun-enasoy matnlarida ham, «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk»da ham uchramaydi. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining -g'alır/-galır affiksi bilan yasalgan formasi qadimgi uyg'ur tili yodgorliklari va «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk» tili uchun xarakterli bo'lib, o'rxun-enasoy matnlarida uchramaydi. Shart fe'lining affiksi o'rxun-enasoy matnlarida va qadimgi uyg'ur tili yodgorliklarida -sar/-sər shaklida qo'llangan bo'lsa, «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk»da -sa/-sə shaklida ishlatilgan. «Qutadg'u bilig»da buyruq-istak fe'lining I shaxs birlik formasini yasovchi affiks -ауы/-әуі (-уы/-yi), -ay/-əy(-y) shakllarida, bu fe'lining III shaxs birlik formasini yasovchi affiks -sunы/-suni shaklida ham qo'llangan bo'lib, kuzatilgan qadimgi yodgorliklarning boshqalarida bu holatni uchratmaymiz.²Bu kabi xususiyatlar ishning har bir bo'limida batafsil gapirilgan va ko'plab misollar keltirilgan.

¹Ш Шукров, Феъл тарихидан, Тошкент; фан, 1970, 3-4- бет.

²Ўша асар 6-7 бетлар

Muallif mayl va zamon formalarining yasalishi, qo'llanishi, tuslanishi kabi masalalar bo'yicha kuzatilgan qadimgi yodgorliklarni shartli ravishda yana 3 guruhga bo'lib chiqadi.

- 1) o'rxun-enasoy matnlari;
- 2) qadimgi uyg'ur tili yodgorliklari;
- 3) XI asr Qoraxoniylar davriga oid yodgorliklar — «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk».³.

Mahmud Qoshg'ariy arab tilshunosligi an'analari asosida turkiy tillarni uchta so'z turkumiga ajratganligi bizga tarixdan ma'lum, ular otlar, fe'llar va yordamchilar. Fe'l turkumining turli xil grammatik shakllari haqida "Devonu lug'otit - turk" asarida aytilganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari ular qadimgi umumturkiy tildan deyarli farqlanmasligi, fe'llarning zamon, nisbat, shaxs kategoriyalari fe'llarning uch zamonga bo'linishi: o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarga bo'linishi kabi ma'lumotlarga ega bo'lamiz." Fe'lning o'tgan zamon shakli hamma fe'llarda –di qo'shib yasaladi, hech qayerda o'zgarmaydi," deyiladi. Masalan: "cho'kdi" "qochdi" kabi. Kelasi zamon fe'li barcha fe'l turlaridan –r qo'shimchasi qo'shish orqali hosil qilinishi ko'rsatiladi. Masalan: turur, kelur, kulur. Hozirgi zamon fe'lining shakllari haqida nima uchundur fikr yuritilmaydi.⁴ Mahmud Koshg'ariy fe'lning mayllari haqida ham batafsil ma'lumot beradi. Uning ta'kidlashicha, fe'l o'zaklari buyruq shaklida bo'ladi: bar. kel, kabi. Shuningdek, ko'p turkiy qabilalarda buyruqni ifodalash uchun fe'l o'zaklariga -g'il, -qil, -gil, -kil affikslarini qo'shib ishlatilishi haqida fikr yuritadi: barg'il, turg'il, kelgil kabi. Istak mayli –sa affiksi yordamida hosil bo'lishini ko'rsatish bilan birga, "ish harakatni bajarish sharafiga bajaruvchi muvaffaq ekanini, unga erishayotganini ifodalaydigan -g'alir, -galir, -kalir affikslari mavjudligini ko'rsatadi: Men barg'adirman "men borish sharafiga egaman", Ul evga kirgalir "U

³Ш Шукров, Феъл тарихидан, Тошкент; фан, 1970, 7- бет.

⁴ Маҳмуд Қошғарий „Девону луғотит турк.41-42-бет.

uyga kirish sharafiga ega, kirishi yaqin qolgandir", Ul yarmak tergalir " U pul to'plashga erishgan, moyil bo'lgandir"⁵Fe'llardagi sonning ifodalanishini arab tiliga qiyoslagan holda, turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatini, bu tillarda ikkitalik va ko'plik farqlanmasligi, son birdaniga ikki qarama-qarshi guruhga: birlik va ko'plik shakllariga zidlanishi ta'kidlanadi. Muzakkar (muj.r), muannas (jen.r) ham farqlanmasligi ko'rsatiladi. Birlik nol shakl orqali (fe'l o'zaklari birlikni bildiradi), ko'plik esa -ing, -i(nglar), -i(ngiz) kabi shakllar orqali ifodalanadi. Masalan, barbaringlar, -i(ng) shakli faqat ko'plikni bildirmasdan, ham hurmat ma'nosini ifodalash mumkinligi ko'rsatiladi. "Tinglovchi yoshi katta, hurmatli bo'lsa, xurmat yuzasidan baring deyiladi".⁶ Bundan tashqari, fe'l nisbatlari, nisbat shakllari haqida ham ma'lumot beriladi. Bundan ko'ramizki "Devonu lug'atit turk" asari X-XI asr turkiy tillar morfologiyasi haqida to'la tasavvur beruvchi qomusiy asardir.

Bizgacha yetib kelgan, muallifi noma'lum bo'lgan "At-tuhfa" asarida ham fe'l turkumiga juda keng o'rin beriladi. Fe'ning nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, shaxs, mayl zamon kategoriyalari atroflicha yoritiladi. Bu asarda majhul, birgalik, orttirma, o'zlik, nisbatlari haqida fikr yuritiladi. Majhul nisbat " ismi ma'ful" atamasi bilan beriladi va uning -l, -il affiksi orqali ifodalanishi haqida ma'lumotlar keltiriladi . Masalan: berildi kabi.

Birgalik nisbat-il, -ush, -ish affiksi yordamida ifodalanadi, deyiladi.

⁷Masalan, urushurman, urushurbiz; urulursan, urushursiz; urushgay, urushgaylar.

Orttirma nisbatni esa o'timlilik bilan bo'g'liq ravishda o'rganilishi haqida aytiladi va quyidagi shakllar orttirma nisbat (o'timli) shakllari deb ko'rsatiladi:

-dir, -tir: mindir, to'ydir, suqtur ,kirgizdir.

-t: o'lturt: o'tqiz, o'qut, boshlat, o'lturt, o'ldir.

⁵Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит турк. 70-бет.

⁶ Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит турк. 51-бет.

⁷ Ат-туҳфа, 125-бет.

-r: chiqar.

-giz, -kiz: kirgiz, tirgiz

-kar: o'tkar, nufuzli qil

-kir, -qir: yamqir

-guz, -kuz: turguz va boshqalar.

Bundan tashqari asarda *O'zlik nisbat* **-n** affiksi orqali ifodalanadi deyilgan. Masalan, **urunur, yuvinur** kabi.

Asarda fe'l mayllari haqida ham ma'lumotlar bor. Buyruq, shart-istak mayllari haqida fikr yuritiladi. Buyruqning tinglovchi (II shaxsga) va g'oyibga (III shaxsga) qaratilishi aytiladi. Bu maylning shaxs va son bo'yicha zidlanishi ko'rsatiladi:

Birlik

tinglovchi: kel, ket, boshla, so'yla

g'oyib: kelsin, ketsin, so'ylasin

Ko'plikda

kelingiz, ketingiz, boshlangiz, so'ylangiz, keling, keting, so'ylang.

kelsinlar, ketsinlar, so'ylasinlar

Bundan tashqari tinglovchiga qaratilgan buyruqni ta'kidlamoq uchun o'zakka **-qin, -g'in** (qalin o'zaklarga); **-gin, -kin** (yumshoq o'zaklarga) affikslari qo'shilishini aytadi: turg'un, yatqin, kelgin, turmag'in, yatmag'in, ketmagin kabi.

Shart mayli haqida gapirilganda, avvalo, uning arab tilida qanday ifodalanishi haqida ma'lumot beriladi va buning turkiy tilda ifodalanishi haqida keng to'xtaladi. Shart mayli (adot) turkchada **-sa** qo'shimchasi yordamida ifodalanishi ta'kidlanadi. Masalan,

Birlik**so'zlovchi: *tursam*****tinglovchi: *tursang*****o'zga: *tursa*****Ko'plik*****tursak******tursangiz******tursalar***

Shuningdek, shart mayli shaklining fe'lining bo'lishli-bo'lishsiz shakllari bilan ifodalanishi, turli zamon shakllarida ifodalanishi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Kesimi shart maylidagi fe'llardan ifodalaganda, gap tarkibida ko'pincha **agar** bog'lovchisi kelishi, bu bog'lovchi aslida forscha bo'lsa ham, turklarda faol qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. Masalan, agar kelsa - agar kelmasa.

Asarda inkor kategoriyasini yoritishga ham katta o'rin beriladi. Turkiy tilda inkorni ifodalashda beshta vosita ishlatilishi aytiladi. Jumladan -ma, -siz (aziqli - aziqsiz), na, yo'q (na kichi bar, na epchi), aqsham yo'q "pulim yo'q"⁸. Sifatdoshning bo'lishsiz shakli -mas (-mar) ham bo'lishsizlik ifodalovchi alohida vosita sifatida beriladi. Masalan, kelmazman, kelmazlar. Ba'zan «z» jarangsizlanishi mumkinligi ta'kidlanadi: kelmasman, kelmaslar kabi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, asarda bo'lishsizlik bo'limi ostida fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik bilan ot (ism)lardagi va umuman gapga xos bo'lgan, predikativlikning bir uzvi sanaluvchi tasdiq-inkor kategoriyalari birlashtirilgan holda beriladi. Asarda fe'l zamonlari keng yoritiladi. Fe'llardagi zamon kategoriyasi uch zamonni o'z ichiga olishi ko'rsatiladi: 1) o'tgan zamon; 2) hozirgi zamon; 3) kelasi zamon.

O'tgan zamon nutq, momentiga nisbatan oldin ro'y bergan yoki yuzaga chiqmagan harakat-holatni bildirishi va bunday ma'no -di, -mish, -ib (-ip) affikslari yordamida ifodalanishi aytiladi. Birinchi affiks jarangsiz undoshlardan so'ng -ti variantida qo'llanilishi ta'kidlanadi. Masalan, aldi, uyaldi (uyandi), ketti, ichti kabi.

-mish, -ib affikslari ismi foillar vazifasida ham kelishi semantik jihatdan o'tgan zamonda ro'y bergan (yoki bermagan) harakat-holatni «eshitganlik xaqidagi

⁸ Ат-тыхфа, 132-бет.

xabar» ma'nosini anglatishi bayon qilinadi. Bu shaklning shaxs va son paradigmasi ham beriladi.

Birlik	Ko'plik
So'zlovchi: kelishman (kelmisham)	kelmishbiz
Tinglovchi: kelmishsan	kelmishsiz
O'zga: kelmish	kelmishlar

Hozirgi zamon shakli hozirgi va kelasi zamon ma'nosini sinkret ifodalashi aytiladi. Hozirgi zamon shakli o'zakning qanday tovush bilan (illatli yoki illatsiz) tugashiga qarab ikki variantda qo'llanilishi bayon qilinadi: o'zak oxiri «sahih» (illatli bo'lmagan undosh bilan tugagan) bo'lsa, o'zak bilan shaxs qo'shimchalari o'rtasida **-a** morfemasi qo'llanilishi; o'zak oxiri illatsiz bo'lganda esa, ya'ni unli bilan tugaganda bu morfema **-y** variantida ishlatilishi ko'rsatiladi⁹.

Masalan,

B i r l i k	Ko' p l i k
so'zlovchi: keladirman, suylaydirman	keladirbiz, suylaydirbiz
tinglovchi: keladirsan, suylaydirsan	keladirsiz, suylaydirsiz
o'zga: keladir, suylaydir	keladirlar, suylaydirlar

Hozirgi-kelasi zamon fe'li aniqlik-ehtimollik belgisiga ko'ra ham zidlanishi, -ir qo'shimchasi orqali ifodalanganda hozirgi-kelasi zamon ehtimollik (gumon) ma'nosini ifodalashi aytiladi. Masalan,

Birlik	Ko'pl i k
so'zlovchi: kelgayman, chiqqayman	kelgaybiz, chikkaybiz
tinglovchi: kelgaysan, chiqqaysan	kelgaysiz, chiqqaysiz
o'zga: kelgay, chiqqay	kelgaylar, chiqqaylar

Bulardan ko'rinib turibdiki muallif turkiy tillar morfologiyasida markaziy o'rinni egallagan fe'llarning grammatik kategoriyalari haqida izchillik bilan ma'lumot bergan.

Turkiy adabiyotning mashhur "Hibbat ul-haqoyiq" asari muallifi Ahmad Yugnakiy bo'lganligini bizga ma'lum. Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfası") asarida fe'llarning grammatik shakllari sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asarda sifatdoshning qadimgi *-mısh/ -mish, -dık/-duq, -düg/-dug'* qoshimchalari ham uchraydi ichmish, yemish, qılмыш, аймаш, тутмish көңүл заңағыны а́char ermish; bolduq, Niyət qылдуq, Аya dostlar, qulaq са́ың аyдүгүмге іstөдүгүмni sördim kabi¹⁰. Shuningdek bu affiks o'tgan zamon I-shaxs ko'pligi (-dik) ma'nosini ham ifodalab kelgan: biz qutulduq kabi.

XI-XII asrlarda eski turkiy qadimgi uyg'ur yozuvi yodagoriklarida keng iste'molda bo'lgan *-g'u/-g'γ, -qu/-qγ* unsuri "Devoni hikmat" asarida *-chi* qo'shimchasi bilan birikkan holda qo'llanib *-g'uvchy/-g'ychi, -quvchy/-k'vchi* shakllarda sifatdosh va harakat nomi ifodalanib kelgan: roza qылg'uvchy, tәsbеh аyg'vchi; ba'zan *-g'usi/-g'ysi; -g'uluk/-g'yl'k* shaklida kelasi zamon sifatdoshi ma'nosida qo'llanilgan: qылkg'usy kabi. Asarda ba'zan *-g'um/-g'ym, -qum/-k'ym, -g'un/-g'yn* qo'shimchali kelasi zamon fe'llari ham qo'llangan. Shu kabi asarda *-ar, -ur* qo'shimchali fe'llar ham qo'llanilgan: sörg'ym, аyg'um, qorqum, болg'um kabi.¹¹ Hikmatlarda yana qылам, bilmәм, ketәrmән, әylәyәм, ketәрәм, etәрәм, beryrsen kabi hozirgi kelasi zamon shakllari anchgina uchrashini kuzatamiz. Shu kabi asarda *-ar, -ur* qo'shimchali hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi keng qo'llanilgan: dunyâdin otar, yolda qalur; shunigdek *-g'an/ -gән, -qan/ -kән* affikisli o'tgan zamon sifatdoshlari ancha keng iste'mol qilingan. Masalan: qorqg'an, qылg'an, kelgән, тутkән¹² Hikmatlarda harakat nomining *-maq/-mәk* ba'zan *-sh(-ısh/-ish, -γsh/ -ush)* affikisli shakllari ham qo'llanilgan.

10

11

12

Masalan: ichmæk, yemak, achmaq, ba'zan bo'lmag', kelmægi shaklda uchraydi; Båt keldi, bilish boldı darveshlær syhbætidin.¹³

Ravishdoshning qadimgi va eski davrlarga xos –u/-γ, -yu/-yγ, -a/-ə(-y), -b(-ib/-ыb), -ub/-γ), -ban/-bæn (-iban/-uban), -madı/-mædi, -mayın/-mæyin, -g'ach/-gäch, -g'uncha/-gyncha, -quncha/-kynchə kabi shakllari qo'llanilgan: ыshrat qылыb, vahdat mæydin töyə ichib, yatu уыг'lab, уылай-уылай yag'u yashың, izləy almas, aylaban, qылыban, tinə bilməs, atquncha, tartg'uncha, qылдurg'алы, bolg'ani.¹⁴

Eski o'zbek yozma adabiy tilining shakllanish tarixini o'rganishda muhim yozma manbalardan biri bo'lgan “Tafsir” asarida fe'l turkumiga xos so'zlar rang-barang shakllarda qo'llangan. Ularni eski o'zbek tiliga xos jihatlari bilan birgalikda, qadimgi turkiy davrlar tili bilan bog'liq tomonlari ham ma'lum darajada ko'rsatilgan. Mahmud Qoshg'ariyning devonida sifatdoshning -an/-än unsuri qadimgi o'g'uz tillariga xosligi haqida fikr bildirilgan edi.¹⁵ Bu unsur ni “Tafsir” asariga qaraydigan bo'lsak ham kuzatishimiz mumkin, ular ba'zi so'zlar tarkibida uchraydi: közİN körän barmu. Asarda qayd etilgan fe'l shakllarida shaxs-son, zamon va maylga xos grammatik ma'nolari ifodalangan. Masalan fe'l shakllarida shaxs-son qo'shimchalarining to'liq va qisqargan qo'shimchalari qo'shib qo'llangan. bolurman, kächämän, bärklämän kabi¹⁶. Bundan tashqari asarda fe'l turkumiga xos so'zlar tarkibida shaxs-son qo'shimchalarining -män, -sän, -biz, -wuz, -siz/-sizlar kabi to'liq va –m, -ң, -q/-k, -miz/-müz, -uz/-yüz, -ñiz/-ñiz, -iñiz/-iñiz, -ñiz/-ñiz kabi qisqargan shakllari qo'llanilgan¹⁷. Kuzatishimizcha bu shaxs-son qo'shimchalari eski o'zbek tilining barcha davrlariga mos keladi. Bo'lishsiz ma'nosini ifodalovchi –maz/-mäz, -mas/-mäs qo'shimchalar sezilarli darajada qo'llanilgan va bular shaxs-son qo'shimchalari bilan ham birikib kelgan:

¹³

¹⁴

¹⁵ Маҳмуд Қошғарий. Девону лўғотит турк. I-т, 479-бет

¹⁶ У. Санақулов, Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 120- бет.

¹⁷ У. Санақулов, Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 121- бет.

bilmāsmān, bilmāssān, ābrāmās, qilmaz, eshītmāslār. Ma'lumki, turkiy tillar yozma yodgorliklarda fe'l mayllarining rang-barang shakllari qo'llanadi. Ayniqsa, fe'lning buyruq-istak maylida shaxs-son va zamon ma'nolarini ifodalanishida bu xususiyatni kuzatish mumkin. Jumladan, bu xususiyat "Tafsir"da ham qisman kuzatiladi. Unda qo'llanilgan fe'l mayllari turkiy tillarning ancha eski davrlari bilan bog'langan. Chunonchi, I-shaxsdagi -(a)y qo'shimchasi asar tilida deyarli uchramaydi, balki bu affiks XV asrlardan boshlab yozma yodgorliklarda iste'molda bo'lgan. "Tafsir"da esa o'rxun-Enasoy, qadimgi uyg'ur va XI asrlarda bitilgan yodgorliklar tilida iste'molda bo'lgan¹⁸-ajin/-ajim shakllaridagi birinchi shaxs mayl qo'shimchasi qo'llanilgan. Shuningdek, I-shaxs ko'pligida ham XIII-XVI asrlarda keng iste'molda bo'lgan -alim, -aliḥ shakllari, II shaxs ko'pligida -ḥiz/-ḥizlar shakllarining iste'molda bo'lishi qadimgi turkiy tilga xos xususiyatlarning asarda davom etganligini tasdiqlaydi (II shaxsdagi ko'plik shakli haqida Mahmud Qoshg'ariy asarida ham fikr yuritilgan)¹⁹"Tafsir" tilida qayd etilgan mayl shakllarining aksaryati XV asrgacha keng iste'molda bo'lgan. Ularning ba'zilar XVI-XVIII asr yodgorliklarida ham uchraydi. Umuman "Tafsir" tilidagi bu kabi xususiyatlar eski o'zbek tilining ilk shakllanish davrlarini o'rganish va belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Qashqarda yozilgan "O'g'uznoma" asariga ham qaraydigan bo'lsak fe'lning bir qancha shakllarini ko'rishimiz mumkin. asarda fellarning quyidagi Grammatik shakllari uchraydi. -moq/-mæk qo'shimchasi bilan birlikda -(i)sh/-(u)sh, -g'u/-g'y shakllari ham qo'llangan: Bu qyiatny avlamaq tilædi. Shuningdek asarda sifatdoshning -g'an/-gæn, -qan/-kæn, -duq/-dyk, -mish/-мыш qo'shimchalari qo'llangan: kelgæn, tekkæn, uchqan, turg'an²⁰.

Asarda sifatdosh ma'nosi -g'u/ -g'y, -g'usi/-g'ysi, -g'uni shakllari bilan ifodalangan: anga, atlag'u, tiledi, barg'unы qoydy, anag'usu oshbu turur.

¹⁸ F. Абдурахмонов, Ш. Шукуров, Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси 140-бет;

¹⁹ F. Абдурахмонов, Ш. Шукуров, Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси 140-бет;

²⁰ У. Санакулов, Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг ilk шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 145-бет.

Felning buyruq istak mayli unsurlaridan –аьн, -un/-γn,-гыл/-gil, -sγn/-sun kabi shakllari uchraydi: alalьн тақы қалқан, senlər barуң, bolg'il, kelgil kabi Shart maylining –sa/sə unsuri qo'llangan: Oshul qыз andag' köklug erdi kim, kылsə ko'k tənri kылə tγrγr, уыг'lasa kök təңri уыг'laya turur.

Ravishdoshning –a/ə'y' u/-y,-b –məyin kabi shakllari qo'llangan: av avlaya, kылə turur, tələy tγrγr yarlab kəngashtilər kabi.“O'g'uznoma ” asarining morfologik tahlilidan shuni aytishimiz mumkinki, asar tilida ilk davrlarga xos xususiyatlar ham borligini ko'ramiz.

Umumturkiy xususiyatlarni o'zida jamlagan “Muhabbatnoma” asari eski o'zbek yozma adabiy tilining namunasi sifatida olimlarimiz qayd qilishgan.Haqiqatdan ham asarda bir qancha morfologik xususiyatlar qayd etilgan.buni quyida biz fe'l so'z turkumi haqida keltirilgan ma'lumotlar orqali kuzatishimiz mumkin.“Muhabbatnoma” tilidagi fe'l shakllari ham deyarli eski o'zbek tiliga mos keladi.Ammo ba'zi bir fe'l shakllarida qo'llanilgan grammatik vositalar ancha oldingi davrlar tiliga xosligi bilan ajralib turadi.²¹Chunonchi sifatdoshning –gan/-kan, -qan/-g'an unsuri qatorida qadimgi –an, -мыш/-mish shakllari ham qo'llangan; vafa qылg'an kishilərgə vafa qыл. Ravishdoshning eski o'zbek tilida keng istemolda bo'lgan –u/-yu/-γ-yγ, -b/-ub /-γb kabi Grammatik unsurlari asar tilida uchraydi: kirər razm ichrə toyg'a kirγu yaңlyq kabi. Ushbu ravishdosh shakllari hozirgi-kelasi zamon ma'nolarini ifodalaydi.Ravishdoshning boshqa shakllari eski o'zbek tilidagidek xususiyatlarda qo'llangan.²²Asar tilida hozirgi–kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz ma'nosi –mas/ -man, shakllarida ifodalangan: qara kiprγgyna kыndыз tenalmas kabi. Asa tilida buyruq- istak maylining quyidagi shakllari uchraydi: I shaxs birligi –уьн/ауьн/-əyin, -g'āyin/-gəyyin shakllarida qo'llangan: oquуьн, toquуьн, қылауьн, kabi.Asar tilida hozirgi–kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz ma'nosi –mas/ -man, shakllarida ifodalangan: qara kiprγgyna kыndыз tenalmas kabi. Asa tilida buyruq- istak

²¹ У. Санақұлов , Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 149- бет.

²² У. Санақұлов , Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 150- бет.

maylining quyidagi shakllari uchraydi: I shaxs birligi –уың/ăуын/-ăyin, -g’ăyin/-găyyin shakllarida qo’llangan: oquуyn, toquуyn, qыlayуyn, kabi. Asarda buyruq-istak mayling ko’pligida -алың affiksi qo’llangan: Surahiy tolsa kop ag’зын achалың, Bu kын mayxanada yarmaq sachалың kabi shakllari qo’llangan. Bu unsur XIII-XIV asrlar turkiy tillari uchun xarakterli bo’lgan. Shuningdek, -ali shakli XIV asrdagi ba’zi asarlarda uchraydi. Jumladan, “Muhabbatnoma”da ham ko’rish mumkin: Bizің bek yadyga ishrăt qылалы. Buyruq-istak maylining bu kabi shakllari hozir ham o’zbek dialektining ba’zilarida qo’llanilar ekan, masalan, Xorazm, Buxoro va Qoraqolpog’istonning ayrim o’zbek shevalarida uchraydi. Aslida -ali unsuri XV-XVII asrlar uchun xarakterli bo’lgan. Buyruq-istak maylining II shaxs ko’pligi asarda –уң shaklida qo’llangan: tirik bolуң shahu davran barынcha. Shu kabi shart mayli -sa/-sə qo’shimchasi orqali anglashilib, -hız affiksi bilan ham birkib kelgan: Vəgər oq atsaңыз bag’гым нышан.²³

Asarda fe’ning II shaxs birlikdagi buyruq-istak mayliga -lar unsurining qo’shilishidan ko’plik shakli hosil qilingan (-sunlar shaklida): Kылə öynəyy ichsýnlər bu as’hab. Ma’lumki shart maylining –**sar** qo’shimchasi O’rxun Enasoy va qadimgi uyg’ur tili yozma yodgorliklariga xos bo’lgan. Bu affiks X-XI asrlarga kelib qisqargan shaklda qo’llanila boshlagan. Umuman –**sar** shakli ba’zi yodgorliklarda XV asrgacha qo’llangan jumladan u “Muhabbatnoma”da ham uchraydi. Masalan: *Ichaliң badаны gyllər sölisər, Tanimiz aqýbat tupraq bolýsar* kabi. Shart maylining qadimda –**sar** unsuri shaxs-son qo’shimchalarining to’liq shakllari bilan kelgan: *bársarmen, bársarbiz* shaklida qo’llangan. Ammo XI-XIV asrlardan esa qisqargargan –**sa** shaklida shaxs-son qo’shimchalarining har ikkala shakli qo’llanila boshlagan. Ushbu holat “Muhabbatnoma”da ham uchraydi: *ötirsəң, atsaңыз, ilməsəңiz, qýlsaңiz* kabilar.

“Xusrav va Shirin” dunyoviy adabiyotning yirik namunalaridan biridir. XIV asrning iste’dodli shoiri, tarjimoni Qutbning faqat ana shu dostoni bizgacha yetib kelgan. Asar eski o’zbek yozma adabiy tilining taraqqiyot davrlarini aks ettirgan

²³ У. Санакулов, Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 151-бет.

yozma manbalardan biri sanaladi.Chunonchi, asar tilining morfologik xususiyatlari ancha qadimgi davrlar tili bilan bog'langanligini kuzatish mumkin.Dostonda qo'llangan fe'l so'z turkumiga xos grammatik unsular tarkibi ancha rang-barangdir.Shaxs-son, zamon, mayl ma'nolarini ifodalovchi Grammatik vositalarning asosiy qismi eski o'zbek tili bilan mushtarak bo'lsada, ba'zi so'zlar tarkibida qadimgi turkiy oilaga xos shakllari ham uchraydi. Masalan buni fe'lning grammatik funksional shakllarida qo'llangan unsurlar tarkibida kuzatish mumkin.Harakat nomining -maq/-mæk, -sh (-ыsh/ish), -g'u/-gʻ, -qu/-kʻ grammatik unsurlari iste'mol qilingan. Ammo ularning qo'llanilish darajasi har xil bo'lgan.Chunonchi, -maq/-mak shakli faol qo'lanilgan shakllariga nisbatan kam qo'llanilgan, -sh (-ыsh/ish) shakllari sanoqli so'zlar tarkibida uchraydi²⁴.Asar tilida harakat nomi, asosan, -maq/-mæk unsuri bilan kechmæk, ichmæk, qылmaq, almaq kabi. Lekin -qu/-kʻ unsuri ham anchagina uchraydi: qылg'u, bolg'u, yegy, tatg'u, ichkʻ, bergy, qorqu kabi.²⁵Bular dostonda harakat nomi va sifatdash ma'nolarini ifodalab kelgan: Aytти bu yag'anny band qылg'u,Yaman ishni öyünagah bolg'u, Nechələr kim bishyrdi yegycha ash, //Ashы pishmishtə tapmadы yegy ash Qadah keltvrди elgə ichkʻ bashlabNechə olturg'u myntek qazg'u yeyy kabi.Shuningdek bu unsur ish-harakatning kelasi zamonda bajarilishini anglatadi, hamda kelishik egalik qo'shimchalari va -chi, -cha, -m unsurlari bilan birikib, harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishini va shu harakat bilan bog'liq shaxs otini, umuman, o'zakdan anglashiladigan ma'no bilan bo'g'liq harakat belgisini va nomini ifodalaydi. Masalan: qылg'uchыqa, ayg'uchыны saqыng'uchыдыn, Syngysi həybətidin tebrəməz yer.Asarda ba'zan ish-harakatning amalga oshmasligini ifodalashda yoq so'ziquo'shilib kelgan: Yənə Shəbdizchə hech at yetgysi yoq, Bu qyzlar ma etəgin tutg'usi yoq kabi.Xullas, -g'u/-gʻ, -qu/-kʻ unsuri ancha qadimgi davrlarga xos bo'lib, buunsurning qo'llanishi va grammatik

²⁴ У. Санақулов, Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 160- бет.

²⁵ O'shaasar 161-bet.

ma'nolari haqida Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida maxsus fikr bildirgan²⁶

Xusrav va Shirin" dostonida harakat nomining -ыsh/-ish, -ush/-ysh unsuri ba'zi so'zlar tarkibida uchraydi. Masalan, toqush (to'qnashuv, urush) -Toqush vaqtida elgə alsa yasın, Yryshdə yirtib arslan panjasini. //Zamana yanlyg' anıñ ygyrshi chin, Alardin tapg'aman teb bir bilishni, Bu soqysh birlə bir saat oturdy, Kimemdi ko'n tug'ish yori borurman kabi.

Bu affiks ishtirok etgan so'zlar mazmunida ish-harakatning yuzaga kelishida ko'pchilik shaxslar ishtirok etishi anglashilgan. va fe'ning birgalik nisbatiga o'xshab ketgan. Ammo qayd etilgan so'zlarda u harakat nomini yasovchi qo'shimcha vazifasida qo'llanilgan. Dostonda sifatdoshning -мыш/-mish, -g'an/-gən, -qan/-kən, -an/-ən kabio'tgan zamon ma'nosidagi qo'shimchalari keng iste'mol qilingan: аумыш(XSh. 136-b.), tapмыш, kezmish, tyzilmish (XSh. 138-b.); qylg'an (XSh.141-b.), kыrgən (XSh..136-b.), yoluqqan, yaqqan (XSh. 167-b.), kechkən(XSh. 140-b.), aңlan, bag'lan (XSh..209-b.): Qarγın toldurma qurtlar yaңlyg' aңlan, Qымырсatek belıñ achlyqqa bag'lan (XSh..209-b.)²⁷kabi.Dostonda hozirgi-kelasi zamon sifatdoshining -r (-ar/-ir, -ur/-yr), -maz/-mas, -ma kabi qo'shimchalari ham iste'mol qilingan. Masalan, titrar(XSh..137b.), qorqar (XSh. 137-b.), ichər (XSh. 139-b.), yidlənyr(XSh.140b.), aytur (XSh. 141b.), bolmaz (XSh. 136-b.), berma, sorma(XSh. 140-b.); ba'zan -yur/yyr shakli ham uchraydi: Özin mug'larqa öxshətmish yyriyyr (XSh 152-b.), anda bashin yyyyr erdi (XSh. 162-b.), tiləyyr (XSh. 224-b.)²⁸ kabi.Sifatdoshning -g'li/-gli qo'shimchasi XV asrgacha qo'llanganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu qo'shimcha XIV asrlardan boshlab iste'moldan chiqa boshlaganligi, ammo "Tafsir", "Qissasi ar-Rabg'uziy", jumladan, "Xusrav va Shirin"da ham qo'llanganligi kuzatilgan deya olimlarimiz qayd

²⁶ Махмуд Қошғарий. Девону лўғотит турк. II-т,71-бет.

²⁷ У.Санакулов, Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 161-бет.

²⁸ У.Санакулов, Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари, II-қисм 162-бет.

qilishadi. Asarda bu unsur bilan yasalgan sifatdoshlar nisbatan oz qo'llangan. Masalan, Chechək

rəngin alyg'ly ənchə yashlar (XSh. 148-b.), Saray atag'ly ul zımdanqa yeti (XSh. 168-b.), Sorar erdi keligli karvandy (XSh 211-b.), kechikli (XSh .171-b.), körygli (XSh. 181-b.), yeglini (XSh .209-b.), mynygli (XSh .209-b.),²⁹ kabilar. Sifatdoshning o'tgan zamon ma'nosini ifodalovchi -duq/-dyk, -tuq/-tyk kabi grammatik shakli ancha oldingi davrlarga xos bo'lib, XIV asrdan boshlab iste'moldan chiqqan boshlagan. Uning qo'llanishi va ma'nosi cheklangan. Lekin "Xusrav va Shirin"da bu qo'shimcha sanoqli so'zlarda qo'llangan: qolduq (XSh. 320-b. .310-b.), eshittyk, ettyk, tilədyk (XSh. 310-b.), Ul əvvəl pərdədin tashra qalduq, Tiladuq ersə bu syrətdə hal ul (XSh.309, 310-bb.) kabi.

Asarda ravishdoshning -a(y), -u(-yu), -b(-ib/-ub), -bən, -madym/-mədn, -mayym/-məyin, -g'ach/-gəch, -qach/-kəch, -g'uncha/-gyncha, -quncha/-kynchə, -g'aly/-gəli, -qaly/-kəli kabi unsurlari qo'llangan. Ravishdoshning -a qo'shimchasi yakka holda ham, qo'shma fe'l tarkibida ham qo'llangan: Izi atym tuta ant ichti Shirin (XSh 183-b.), Yzyn tyn tiymədin kozdin sacha yash (XSh..236-b.), Ya kimsen teb sorə bashladı Shirin. (XSh. 153-b.), Tiya bilmədi ul dəm öz-özini (XSh. 153-b.), Bu syrətdin ne ayturlar baqa kör (XSh. 152-b.) kabi. Bundan tashqari ravishdoshning -u (-yu) shakli ancha keng iste'mol qilingan: Bir ənchə uyg'layu köb qyldy zara (XSh.165-b.), Tamashalar qyly avqa barurlar (XSh. 158-b.), Yururlar xush kvla öynayy xurram (XSh.21b.158-b.), sözləyy bashlab, chыqaru bashlab (XSh.181~b.) kabilar. Ayniqsa, -b (yb/ib,ub/yb) qo'shimchali ravishdosh shakli keng iste'mol qilingan. Masalan, bashlab (XSh.138-b.), alab, bilib, olyb, qonub, köryb (XSh.8a. 136,137-bb.), Bolubkezlanchi razlarym bilib chin (XSh.9b.138-b.) kabilar. Asarda faqat birgina so'z tarkibida ravishdoshning -ban qo'shimchasi qo'llangan: Həm birgə kelibən bolub yoldashym. (XSh.1 16a.324-b.)kabi;

²⁹ У.Санакулов, Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, морфологик меёрларининг илк шаклланиши ва тараққиёти босқичлари. II-қисм 161-бет.

-madын/-mәdin qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shakli ancha sezilarli darajada qo'llangan; -mayын/-mayin va -g'ach/-gәch, -qach/-kәch qo'shimchali shakllari esa sanoqli so'zlarda uchraydi: qorqmadын (XSh.23b.163-b.), sözlәmәdin (XSh.25b.166b.), saqынmadын (XSh.22a.161-b.), tinmәdin (XSh.22a.161b.), qылmayын (XSh.98b.295-b.), körmәyin (XSh.81b.265-b.); eshitkәch (XSh.94b. 288-b.), urg'ach (XSh.37a.188-b.), yetәch, alg'ach (XSh.23b.162-b.) kabi.Ravishdosh -g'uncha/-gынchә, -g'ынcha/-ginchә shakllari ham qo'llangan. Masalan, qong'ucha (XSh.72a.249-b.), kelginchә (XSh. 20b.117-b.), uprag'ынcha (XSh.78b.259-b.), ызmag'incha (XSh.40a.193-b.), bolg'uncha (XSh.42h.196-b.), tabginchә (XSh.43a.198-b.), bashlang'ынcha (XSh.60a.228-b.) kabi.Ma'lumki, turkiy tillarda, mayl va zamon kategoriyasi bir butun holda qaralgan. Chunonchi, zamon va mayl ma'nolarini alohida guruhga ajratuvchi farqlar, maxsus grammatik vositalar yo'qligi e'tirof etilgan. Mayl guruhidagi unsurlarning grammatik ma'no xususiyatlarida shaxs-son, zamon va mayl yig'indisi.paradigmasi mavjud. Aslida gap tarkibida yoki nutq jarayonida mayl va zamon ma'nolari shaxs-son orqali anglashiladi.Agar shaxs-son ma'nosini ifodalovchi grammatik vositalar hozirgi tilimizdagidek guruhga ajratilsa, eski o'zbek tilida qo'llanilgan shaxs-son qo'shimchalarini to'liq va qisqargan shakllarga bo'lish mumkin. Shu asosda "Xusrav va Shirin" dostonida qo'llangan so'zlar tarkibidagi shaxs-son qo'shimchalarini ham to'liq va qisqargan guruhga ajratish mumkin.Asarda shaxs-son qo'shimchalari fe'lning turli shakllariga qo'shilib kelgan. Chunonchi, I shaxs birlik va ko'plikida to'liq shakllari qo'shilgan: yalvaгыbman (XSh.1Q9.314b.) bilyrmen (XSh.44a.200-b.), tapmazmen (XSh.57b.222-b.), yytәrman, bilyrmән (XSh.56a.22bb.), bargamen (XSh.14b. 169-b.), alsaman (XSh.85b. 272-b.), töylәsәmiz (XSh.27b.169-b.), bolsamiz (XSh.21a.159-b.), bolmazbiz (XSh.38a.186-b.), sözlәsabiz (XSh.64b. 234-b.j, ызg'arbiz (XSb.53a.216-b.) kabi; II shaxs birlik va ko'plikda ham to'liq shakliari qo'llangan: bilyrsән (XSh.18a.278-b.), yyrirsen (XSh.89b.278-b.), kelyrsiz, bolursiz (XSh.25a. 166-b.) kabi.Demak, asarda shaxs-son affikslarining to'liq shakllaridan I shaxs birlikda -man/-men, ko'plikda esa -biz/-miz; II shaxs birligida -san/-sen,

ko'pligida -siz shakllari uchraydi. Asarda shaxs-son qo'shimchalarining qisqargan (I, II shaxs bidigidagi) -m, -n shakllari keng qo'llangan. Masalan, keldim (XSh.10a.141b.), kezdin (XSh.12b.143-b.), qildim (XSh.19a. 156-b.), bardin, ichirdin (XSh.48b.206-b.) kabilar shular jumlasidandir. I, II shaxs-son qo'shimchasining ko'pligida -q/-k, -niz/-niz, -uz/-uz, -niz/-niz, -ung'uz/-ung'uz shakllari qo'llanilgan. Masalan, ko'rmedyk (XSh.10!b.300-b.), qbulduq (XSh.309-b.), Javab aydi kim andin biz maqbulduq (XSh.106a. 309-b.), Ko'rkli kormedyk myntek tediler (XSh.101a.301-b.). keldiniz (XSh.10a.266-b.)kabi. Demak, shaxs-son qo'shimchalarining qisqargan I, II shaxs birligida -m, -n ko'pligida esa -niz/-uz, -q/-k shakllari qo'llanilgan. III shaxs birligida hozirgi tilimizdagidek, o'tgan zamon sifatdoshining-di (ko'pligida esa -lar) qo'shimchasi qo'shilib keladi: aldi (XSh. 10a.30ib.) kirirlar (XSh 310-b.) kabi. Asarda ba'zi bir fe'llarda I shaxs -men/-man shakllari qisqargan holda qo'llangan. Masalan, bilmən-bilmas(maz)man, olman-olmasman, qilmag'am-qilmag'ayman (XSh .147-b.), qillg'am-qilg'ayman (XSh.21a.16G~b), salg'am-solg'ayman kabi. Bunday xususiyatlar eski o'zbek tilining yozma yodgorliklarida, jumladan, "Qisasslar-Rabg'uziy", "Tafsir", "Qisass Yusuf" va boshqa asarlar tilida ham kuzatiladi. Xullas, shaxs-son qo'shimchalarining to'liq shakllaridagi bu kabi xususiyatlar eski o'zbek tili bosqichida mavjud, hozirgi o'zbek tilida esa bu unsurlar ba'zibadiiy asarlar tilida uchrashi mumkin. Ammo ular adabiy tilga xos emas. Shuningdek, umumturkiy va eski o'zbek tilida I, II shaxs ko'pligida qo'llanadigan -biz va -siz qo'shimchalari hamda I shaxs buyraq-istak maylining bag'layin, uyig'layin (XSh .221-b.), ayniqsa, mayl qo'shimchalaridagi ko'plik shakllari hozirgi adabiy tilimizga xos emas. Chunki fe'l mayllarida, xususan, buyraq-istak maylida shaxs-son ma'nosining ifodalanishida qo'shimchalarning shakllari o'ziga xoslikka ega. Ular qadimgi turkiy va eski o'zbek tiliga xos yozma yodgorliklar tilida rang-barang shakllarda qo'llanilgan. Qutbning "Xusrav va Shinn" dostonida ham bu holatni kuzatish mumkin. Asarda qo'llanilgan buyruq-istak maylining barcha shakllari eski o'zbek tilidagidan farqlanmaydi. Masalan, I shaxs birlikda -g'ayin/-gayin, -ayin/-ayin, -g'ayim/-gəyim -(a)uyim/-(ə)yim, -a(-

ə)y shakllardagi qo'shimchalar qo'llangan: bag'lag'ayın, uyig'lag'ayın (XSh.220-b.); sözlagəyn, kizləgəyin (XSh .220-b.); чықауын, уйқауын (XSh.21-b.), қылауын, келəyim, Yazuqым bar esə ayg'ыл biləymən (XSh.238~b.) kabilar shular jumlasidandir. I shaxs ko'plikda -g'alın/-gəlim, -алын/-əlin, -(a)lim/-(a)lin, -ali shakllari qo'llanilgan: oynag'alım (XSh.184-b.), yegəlim (XSh. 174-b.); қылалым (XSh.233-b.), қылаым (XSh.139-b), ichalın (XSh.150-b.); көрмəlin. (XSh.213b); yatalы (XSh.254-b.) kabi. II shaxs birligida -g'ыл/-gil, -g'ul, -qыл/-kil shakllari qo'llangan. Masalan, ayg'ыл (XSh.153-b.), baqg'ыл (XSh.275-b.), bolg'ul (XSh.11a. 142-b.), etmogil (XSh.266-b.), eshitkil (XSh.217-b.), tyteshkil (XSh.265-b.) kabi. Shuningdek, asarda qo'llangan -giz, -bil, sör, kör, аңла, tiңlə (XSh. 136-b.) kabi so'zlar mazmunidan ham buyruq-istakmaylining II shaxs ma'nosi anglashilgan. II shaxs ko'pligida -н, -ын/-in, -ңыз/ñiz, -ңыз/-ñiz, -ыңыз/-iñiz, -ungiz/-үñiz qo'shimchalari qo'llangan: алын, ezərlən, tiləməñ, biliniz, қылыңыз, көрñiz. III shaxs birligida -su/-sy, -sun/-syn; ko'pligida -sunlar/-synlar, -duq/-dyk, -tuq/-tyk kabi unsurlar qo'llangan: tytylsyn, qutulsun (XSh.157-h.), bolsun (XSh.156-b.), bolmasun (XSh.168-b.); biz eshytyk (XSh.310-b.), biz ma qylduq (XSh.10b.309-b.) kabi. Asarda ba'zan -sun unsuri -su/-sy shaklida ham uchraydi. Anin yashy uzun bolsu teyy shah kabi. Ushbu yodgoriik tilida shart mayli, asosan, -sa affiksi bilan ifodalangan bo'lsada, ba'zi so'zlar tarkibida qadimgi turkiy tili davrlariga xos -sar shakli ham uchraydi: Kim eksər ausalyqni shakaru shir (XSh.238-b.), Kim ysh tyn bardybu kyn qylmayysar (XSh.295-b.) kabi. Shuningdek, eski turkiy tilidavrlariga xos kelasi zamon ma'nosini anglatuvchi -asi qo'shimchasi asardagi ba'zi so'zlar tarkibida uchraydi: Kim yl devana ergə ne qylasy (XSh.232-b.)s Ne chara birlə andin qurtulası (XSh.232-b.) kabi. Qayd etilgan misollardan ko'rinib turibdiki, asarda fe'l maylining qo'shimchalari turli shakllarda iste'molda bo'lgan. Chunki eski o'zbek tilining XI-XIV asrlar tilida grammatik unsurlar ko'p shaklda qo'llangan. Buning sababishundaki, u davrlarda adabiy til og'zaki nutqda ham, yozma tilda ham muntazambir adabiy qolipga kirib, adabiy me'yorga shakllanib ulgurgan emas edi. Tilshunos olimlarimiz qayd etganlaridek, o'sha davrlarda qardosh turkiy tillar kabi eski o'zbek tili ham umumturkiy adabiy til tarkibida bir

necha hududiy tarmoqlar asosida shakllanib, taraqqiy etib kelayotgan bosqichda bo'lgan. Xuddi ana shu o'tish davri o'zbek adabiy tili ilk bosqichining yozma yodgorliklari til materialida ham o'z aksini topgan. Shuning uchun boshqa grammatik unsurlar kabi mayl qo'shimchalarining ko'p shaklliligi ham ushbu davr xususiyati bilan bog'liqdir. Bu xususiyatlar "Muhabbatnoma" kabi asarlar tilida ham o'z aksini topgan.

1.2. XVI-XX asrda fe'lining o'rganilishi.

Fe'l barcha tillarda ham faol bo'lgan so'z turkumlaridan biridir. Fe'l semantik doirasi keng, lekin, asosan, ish-harakat hamda ish-harakat tasavvurini beradigan holatni anglatadi, ya'ni barmaq, kelma'k kabi fe'llar ish-harakatni, ko'rma'k, eshitma'k o'ylamaq fe'llari esa holatni bildiradi³⁰. Fe'l turkumiga bir necha morfologik kategoriyalar xosdir: funksional formalar, bo'lishli bo'lishsizlik, nisbat, tuslanish, mayl va zamon kabi.

Ayrim adabiyotlarda fe'l aspektlariga mumkinlik va nomumkinlik shakllarini ham kiritadilar. Aslida mumkinlik-nomumkinlikni xosil qiladigan grammatik shakllar (formalar) yo'q, balki bunday semantika qo'shma fe'llar orqali xosil qilinadi. Masalan, tartalar – tarta almas³¹. Fe'lining bo'lishli va bo'lishsiz shakllari fe'l aspektlari kategoriyasini hosil qiladi, chunki bo'lishsizlik –ma//–ma' affiksi orqali hosil qilinadi va bu affiksni olmagan so'z bilan oppozitsiyaga kirishadi: barma, kelturma' va boshqalar³².

Fe'ldan boshqa turkumlardan so'z yasovchi affikslar orqali fe'l yasalishi mumkin ekanligi barchamizga ma'lum :masalan "Boburnomada" -la/-la' affiksini keltirilishicha bu affiks barcha davrlarda ham faol qo'llangan. Ot, sifat, son, ravish, ba'zan olmosh turkumlaridan fe'l yasagan. Turkiy va turkiy bo'lmagan so'zlarga

³⁰ F. Абдурахмонов, Ш. Шукуров, Қ. Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т; 2009, 33-бет.

³¹ F. Абдурахмонов, Ш. Шукуров, Қ. Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т; 2009, 33-бет

³² Б. Ўринбоев, А. Алиев, У. Турсунов. Ўзбек адабий тили тарихи. Т; 1995, 36-бет

ham qo'shilgan: Tesh-teshtin pichaqlab, chapqulab paraladilar. Bu affiksni Navoiyning "Nasoim ul muhabbat" asarida ham keltirilganiga guvoh bo'lamiz: Bir ku'n namazi peshinni guzarladi... kabi

-da/-da' affiksi. -la/-la' affiksining fonetik varianti hisoblangan. Masalan: Yoldasa bu yolda Nizamiy yolum// qoldasa Xusrav bila' Jamiy qolum ushbu misol Navoiyning Xamsasida keltirilgan bo'lib eski o'zbek tilida sonor undoshlardan so'ng qo'llangan:

-y/-ay affiksi. Sifatdan fe'l yasagan: a'l faqir qashida ulgayibdur (Navoiy).

r/-ar/-a'r affiksi. Sifatdan fe'l yasagan: Bu nav` qara ku'n ichra' qarib// Ya`niki qara ku'nu'm aqarib (Navoiy).

-qar/-ka'r affiksi. Otdan fe'l yasagan: Tag tuzni tu'n-u ku'n bashqarib// Xayalni yolaqbasidin ftkarib (xamsa).

-q/-k, -iq/-ik, -uq/-u'k affiksi. Ot va boshqa turkumlardan fe'l yasagan: Libasi ra'n'in bilma'n, yoluqsa, xayrattin (Lutfiy).

-sa affiksi. Otdan fe'l yasagan: Dilraba, abi xayrat ernin' u'chu'n jan susadi (Lutfiy).

-sin affiksi. Ot va sifatdan fe'l yasagan: Yiglamsinur -u ko'ziga' kelma's yash (Navoiy).

Fe'lning grammatik funksional formalarida, bir tomondan, fe'lga xos belgilar mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, morfologik xususiyatlari va sintaktik funksiyalari bo'yicha bu formalar boshqa so'z turkumlariga ham yaqin turadi. Bu jixatdan sof fe'llar faqat fe'llarga, harakat nomlari otga, sifat-dosh formalari sifatga, ravish-dosh formalari ravishga yaqin turadi³³. harakat nomi formalari. ish-harakat va holatning atamasi hisoblanadi. Eski o'zbek tiliga qaraydigan bo'lsak harakat nomining quyidagi formalari amalda bo'lgan:

³³ Б. Ўринбоев, А. Алиев, У. Турсунов. Ўзбек адабий тили тарихи. Т; 1995, 43-бет

-sh(-ish/-ish, -ush/-u'sh) affikslari eski o'zbek tilida kam qo'llanilgan va ayrim yodgorliklarda uchraydi: Yu'gu'ru'shda zabunraqdur (Boburnoma). ...bo'larnin' alishi va berishi (Boburnoma).Boburning Boburnoma asarida /-u'sh va (-ish/-ish kabi shakllarini ishlatilganiga guvoh bo'lamiz.

bundan tashqariBoburnoma tida o'timli fe'llarning majhul darajadagi shakli tushum kelishigidagi otlarni boshqarsh hususiyatiga egadir. Bu shakl o'zbek tilida uchramaydi Masalan: Урдунынг ва урду отрусыны. Мазбуд ва мустаҳкам қылылды.

Hozirgi kelasi zamon fe'li -dur affiksini qo'shish bilan yasaladi.Келадурман, келадурсан kabi.

Boburnomada eski uyg'ur tiliga xos bo'lgan ba'zi zamon shakllari mavjud. Ulardan biri -gu affiksi bo'lib u kelasi zamon aniq fe'lini hosil qiladi: келгум, кулгунг, келгуси.

Buyruq istak maylining birinchi shaxs shakli -aling bilan yasalgan fe'llar keng tarqalgan.Хан қашыға Ташкентга баралынг.

Turkiy tillarda fe'lning Sifatdosh formasi predmetning belgisi bo'lgan ish-harakat va holatni hamda bevosita ish-harakat va holatni anglatgan. Sifatdosh formalarida belgi-harakat manosi bilan birga, unda grammatik zamon manosi ham ifodalangan.Bu sifatdoshning, harakat nomi formalaridan farqlovchi asosiy belgisi bo'lgan. Sifatdosh formalarini zamon nuqtai nazardan ikki asosiy guruhga ajratilganini ko'ramiz: a) o'tgan zamonni ifodalovchi sifatdosh formalari. Bu guruhga -mish/-mish, -duq/-du'k//-tuq/-tu'k,-gan/-gan//-qan/-ka'n,-an/-an affikslari bilan xosil bo'luvchi formalar kiradi; g') hozirgi - kelasi zamonni ifodalovchi sifatdosh formalari. Bu guruhga -r(-ar/-ar, -up/-u'r, -up/-u'p, -yup/-yu'r),

-maz/-maz//-mas/-mas, -gu/-gu'-qu/-ku', -guchi/-gu'chi//-quchi//-ku'chi, -dachi/-dachi//-tachi/-tu'chi, -gli/-gli, -asi/-asi va boshqa affikslar bilan xosil bo'luvchi formalar tashkil etadi bundan tashqari o'tgan zamon sifatdoshlari. -gan/-ga'n (-qan/-ka'n) affiksli sifatdosh eski o'zbek tilining barcha davrlari uchun xarakterli

bo'lgan va faol qo'llangan. -mish/-mish affiksli sifatdosh eski o'zbek tilining barcha davrlarida faol qo'llangan bo'lib, uning grammatik mano va funksiyalarining taraqqiyot davrlari ikki bosqichga bo'linadi: birinchi bosqich XV asrdan oldingi davrlarni, ikkinchi bosqich XV asr va undan keyingi davrlarni o'z ichiga oladi ³⁴. Yozma yodgorliklardan ma'lum bo'lishicha, turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlarida unli bilan tugagan fe'llarga -yur/-yu'r variantlari qo'shilishi xarakterli bo'lgan. Masalan, o'rxun-enisey va qadimgi uygur tili yodgorliklarida bunday fe'llarga asosan -yup/-yu'p variantlari qo'shilgan, XI-XII asrlarga oid, XX va boshqa manbalarda ham ko'pincha shu variantlari qo'shilgan. a'nli bilan tugagan fe'llarga -r yoki -yur/-yu'r qo'shilishi haqida Maxmud Qoshg'ariy ham ma'lumot bergan. uning ko'rsatishicha, bunday fe'llarga -r o'rnida -yup/-yu'p qo'shilishi XI asrda argular tili uchun xos bo'lgan. -r affiksli sifatdosh ko'makchilar bilan qo'llanadi ³⁵: Olturur uchun qabil yer erdi (BN). olma'sdin burun achib ko'zu'mni..(Navoiy FSh).

-adurgan/-a'du'rga'n affiksli sifatdosh. Bunday sifatdoshlar XV asrdan keyin qo'llangan bo'lib: Meni shayda qiladurgan bu ko'ng'u'ldu'r, bu ko'ng'u'l, xar-u rasva qiladurgan bu ko'ng'u'ldu'r, bu ko'ng'u'l. ushbu misol Lutfiyning g'azalidan olingan misol bo'lib -adurgan/-a'du'rga'n shakllari qo'llangan. yoki Boburnomada keltirilgan jamlaga qaraydigan bo'lsak ham yuqoridagi qo'shimchani ko'rishimiz mumkin.. Kabo'ldin ku'ch kela'du'rga'n jixatidin sultanga qoshula almaydurlar.

Ravishdosh formalari. Eski o'zbek tilida quyidagi affikslar bilan ravishdosh xosil qilingan:

-b(-ib/-ib,-ub/-u'b) affiksli ravishdosh. qo'llanishi, mano va funksiyalari quyidagicha bo'lgan: ravishdosh ifodalagan ish-harakat shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakatdan oldin bajarilgan. Bunday xollarda ravishdosh asosan harakat manosini ifodalovchi fe'llardan iborat bo'lgan masalan:Navoiy asarlarida ravishdoshning

³⁴ F.Абдурахмонов, Ш.Шукуров, Қ.Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т; 2009, 41-бет

³⁵ Махмуд Қошғарий, Девону луғотит турк. 50-бет.

yuqoridagi shakllari ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin: Buyurdilar kim, xujrasin buzub, tufragin xanaqaxdin tashqaru tashlasunlar. Buxaradin qavun keltu'ru'b, bir majlisda kestu'rdum.

-a/-a'(-y) affiksi bilan yasalgan ravishdoshlar, bu ravishdoshlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan: a. Yakka xolda qo'llanadi. Bunda shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini bildiradi: Bir kun Ismail avqa barmish erdi, Ibraximni ko'ra' keldi (qR). Yu'zu'n'din emdi an'a ashna

tila'y keldim (Lutfiy). g'. qo'shma fe'lning komponenti bo'lib keladi: Yol bashinda tura qaldi Mirza (ShN). Ittifaq qila almay, parishan barib...(BN). q. Ko'pincha takror qo'llanadi. Bunda ham shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holati ko'rsatiladi: Firaq otina yana-yana keldim (Lutfiy). Tamshiy-tamshiy ani qilay n'fsh (Navoiy ML) bu affiks ham XV asrdan so'ng faol qo'llanganligini misollar orqali ko'rishimiz mumkin.

-gali/-ga'li//-qali/-ka'li affiksi bilan yasalgan ravishdosh ham turkiy tillarda qadimdan keng qo'llanib kelgan bo'lib, eski o'zbek tilida ham aktiv iste'molda bo'lgan. hozirgi o'zbek tilida bu affiks -gani(-qani/-kani) ko'rinishida ishlatiladi. Bu ravishdosh shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni bildiradi. Misollar: a'l xanaqaxga oynagali kirdila'r (Nav. MN). Malik anlarni o'ldu'rga'li qasd qildi (Taf.). Yusufni ko'rga'li zindanga kelu'r erdila'r (qR).

bu yerdagi oynagali, o'ldu'rga'li, ko'rga'li, so'zlarida -gani(-qani/-kani) affikslari qo'llangan.

-gach/-ga'ch/-qach/-ka'ch bilan yasalgan ravishdosh qadimgi yodnomalarda uchramasligi aytiladi. Eski o'zbek tilida esa asosan, XV asrlardan boshlab kuzatilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu ravishdosh payt manosini bildiradi, ya'ni bu ravishdosh ifodalagan ish-harakat tugashi bilan shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakat boshlanadi. Misollar: Yana sham olgach, oldilar bari

mast (Navoiy. SS). Achilgach kelib erta'si xujrasi//qilur jan-u janjal har erta'si (Muhammadiyah.)

. -guncha/-gu'ncha'//-quncha/-ku'ncha' affiksi bilan yasalgan ravishdosh eski o'zbek tilida ancha keng iste'molda bo'lib, qadimgi yodgorliklarda kam qo'llangan. Bu ravishdosh ham payt manosini bildiradi, ya'ni ravishdosh ifodalagan ish-harakat boshlangunga qadar shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakat yuzaga chiqqan bo'ladi yoki davom etgan bo'ladi. Misollar: Xan yetku'ncha' ani quladilar (ShN). Lutfiy miskindin o'lgu'ncha' duabolsun sen'a' (Lutf.)

O'zbek tilida, shu jumladan, turkiy tillardagi mayl va zamon formalari, mayl va zamon formalari munosabati munozarali masalalardan hisoblanadi. Turkiy tillardagi mayl va zamon formalari uchun maxsus affikslarning yo'qligi bunday munozaraga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, mayl ish-harakatning voqe'likka munosabatini ifodalab, fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish xususiyatini, imkoniyatini, ya'ni, real voqelikka, sharoitga bog'langanligini bildiradi. Masalan, bordi fe'li ish-harakatning real bajarilganligini, ishla fe'li ish-harakatning bajarilish haqidagi buyruqni ifodalaydi.

Eski o'zbek tilida buyruq-istak mayli ko'p formali bo'lib, ular quyidagicha hosil bo'ladi: I shaxs birlik formalari:

-(a)yin/-(a')yin. Bu forma barcha davrlarda keng qo'llangan: Ku'chu'm yetmishcha' ko'p xizmat qilayin (MN). Kimga' izxar a'yla'yin (Munis).

-(a)yim/-(a')yim. XV asrdan oldingi davrlarda qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarda esa ayrim yodgorliklarda ba'zan uchrab qoladi: Men qarindashlarim birla' ken'a'sha'yim (qR). Senin' u'chu'n shaharda bir yaxshi imarat qilayim (Sayfi Saroiy).

-gali/-ga'li. XVI-XVII asr yodnomalarida uchraydi: Xech yamanliq an'a yavutmagali//seni telmurtub ani tutmagali (ShN). Biz seni tutub berma'ga'li tedila'r (Sh.tar.).

-(a)lin'/(a')lin'. XVIII asrgacha bo'lgan yodnomalarda uchraydi: Asbab qurun'lar, Eran shaxrina baralin' (Tafsir). Ne bolsa bolsun, ush bashdin kecha'lin'//Bu surat razidin parda achalin' (XSh).

-(a)li/(a')li affiksli forma XV-XVII asrlar uchun xarakterli bo'lib, bu davrda buyruq-istak mayli I shaxs ko'plik manosi ifodalashning asosiy formasi sifatida yodgorliklarda keng qo'llangan: Emdi so'znin' asliga shuru' qilali (Navoiy Mq). Andijanga cheka'li bizla'r lashkar//tu'za'li ul sari axan'i safar (ShN).

-(a)liq/(a')lik .XIV asrdan boshlab qo'llanadi: Xasmliq qilsa, qilaliq fani (ShN). o'zimizni axvalimizni alayiq (Sh.turk).

-(a)yliq/(a')ylik. XIX asrdan boshlab keng qo'llana boshlagan: Furqat va Muqimiy asarlarida ko'rishimiz mumkin. Bera'ylik ikkimiz ham an'ala'shka'r/ bolub ja'n' a'yla'su'n sardari a'ska'r (Furqat). Ey yaxshilar, kela'ylik, bir jayga yigilishayliq, oynayliq, ku'la'ylik, aman bolayliq (Muqimiy).

Buyruq-istak maylining II shaxs birlik formasi eski o'zbek tilida –gin/-gin//qin/-kin affiksi bilan ham yasalgan. Bu affiks –gil/-gil//qil/-kil affiksining fonetik varianti bo'lib, nisbatan keyingi davrlarda paydo bo'lgan masalan: Kelgin ke, firaqin' otida qalmadi xalim (Lutfiy). Men dedim kim, rast aytqin (BN). Baqqin, ekin pisha'r-mu aftab ko'rma'y (Muqimiy).

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tili va boshqa turkiy tillarda buyruq-istak maylining II shaxs birligi ko'pincha affikssiz qo'llanadi, ya'ni formal jixatdan fe'l negiziga to'g'ri keladi ³⁶. Bu holat eski o'zbek tilida ham keng kuzatiladi: Taqi yuz min' altun keltu'r (qR). qaraqchi ko'zla'rin'din bir qiya baq (Atoiy). Adl qulagila eshit xalimi (Muqimiy).

She'riy asarlarda buyruq-istak mayli II shaxs birligi affikssiz qo'llanganda, ba'zan –u/-u' unlisi orttiriladi. Bu xol Alisher Navoiy va Xusayn Boyqaro she'rlarida uchraydi: Ey saba, avvara ko'n'lu'm ista'yu' har yan baru// Vadi-yu tag-u biyabanlarni bir-bir axtaru. Axtarurda tapsan' ul ko'n'lu'mki, majnun shivadur// har nechuk bolsa a'da'm saxrasi sari bashqaru. Misollardagi baru, axtaru, bashqaru fe'llari borgin, axtargin, boshqargin manosi ifodalaydi.

³⁶ F. Абдурахмонов, Ш. Шукуров. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, Т; 2009, 38-бет;

Eski o'zbek tilida buyruq-istak maylining II shaxs ko'pligi uchun quyidagi formalar qo'llangan:

-n'(undoshdan keyin: -in'/-in'//-un'/-u'n'). Eski o'zbek tilining barcha davrlarida keng qo'llangan: Ey pari ruxsarlar, bizga' nigax a'yla'b otin'//bir nazar birla' gadani padshax a'yla'b otin' (Lutfiy). o'zga' qilman' bu dega'n so'zu'mni (ShN).

-n'iz/-n'iz(undoshdan keyin: -in'iz/-in'iz//-un'iz/-un'iz//-un'uz/-u'n'u'z). Bu forma eski o'zbek tilida nisbatan kam qo'llangan: Axbab, yigitlikni ganimat tutun'uz//o'zni qariliq mexnatidin qorqutun'uz (Navoiy Mq). Bu kishiga' ul chaqli nima'rsa' berin'iz (Sh.tar.)

-n'lar/-nla'r(undoshdan keyin: -in'lar/--in'la'r//un'lar/-u'n'la'r) affiksi bilan yasalgan forma eski o'zbek tilida kam qo'llangan: Anda barib, otav suqub kelin'la'r (Sh.tar.). Xizmatimi yaxshi qilin'lar bilib (Muqimiy).

-n'izlar/-n'izla'r (undoshdan keyin: -in'izlar/-in'izla'r) affiksi bilan yasalgan forma ham eski o'zbek tilida kam qo'llangan: Atayi xaqin anda ista'n'izla'r (Atoiy). Faryad qilib aytib turur: meni o'tka'zin'izla'r teb (Sh.tar.).

III shaxs formalari. Buyruq-istak maylining III shaxs birlik formasi eski o'zbek tilida –sun/-su'n affiksi bilan xosil qilingan (barsun, kelsu'n), ko'plik formasi esa birlik formasiga –lar/-la'r affiksini qo'shish bilan xosil bo'ladi (barsunlar, kelsu'nla'r). Bu affiksning –sin/-sin formasi o'tmishda o'guz va qipchoq gruppasidagi turkiy tillar uchun xarakterli bo'lib, o'zbek tilida asosan XIX asrdan boshlab uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida buyruq-istak maylining III shaxs birlik manosi fe'l negiziga –dik qo'shilishi bilan ham ifodalangan. Bu affiks faqat yumshoq variantda bo'lib, singarmonizm qonuniga bo'ysunmaydi: Chekibtu'r sa'y etib bisyar-bisyar/ yu'dik bashtin ayaq zinxar-zinxar. Yugandin son' suyub ayvandin aldik/ haririn suvga yaxud otga saldik (Farxod va Shirin).

Keltirilgan misollardagi yudik, aldik, saldik fe'llari yuvsin, olsin, solsin manosini ifodalaydi.

Shart mayli. Shart mayli formasining yasallishida eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Shart mayli affiksi eski o'zbek tilida –sa/-sa' ko'rinishida qo'llangan: barsa, kelsa' kabi. Bu affiks dastlab –sar/-sa'r formasida qo'llangan: barsar, kelsa'r kabi. Shart mayli formasiga shaxs-son qo'shimchalarining qo'shilishi quyidagicha bo'lgan: a. Shart mayli affiksi –sar/-sa'r formasida qo'llanganda, shaxs-son affikslarining faqat to'la variantlari qo'shilgan: barsar-men, kelsa'r-sen, barsar-biz kabi. g'. –sa/sa' formasida qo'llanganda, shaxs-son affikslarining qisqargan variantlari qo'shilgan: barsam, kelsa'm, barsalar kabi. Shart fe'lining analitik formalari:

–sa/-sa' erdi: Tapsam erdikim, nedur andin murad (Navoiy LT). Kashki Yusufni ko'rma'sa' erdim (qR).

–di/-di//–ti/-ti ersa': qoydum ersa' bu mashaqqat janima (Navoiy LT). Idris shagirdi birla' mun'a tapindi ersa', biz ham tapinur-biz (qR).

–mish/-mish ersa'. Kel, menin' bagrimni ko'r, yuz para har bir dagida// ko'rmish ersa'n' bagara gar lalai sadbarg kam (Munis).

O'tgan asrimizga kelib Abdurauf Fitratning ham fe'lga doir qarashlarini ko'rishimiz mumkin. Fitrat fe'lga mazmuniy va grammatik nuqtai nazardan yondoshadi. Fe'lining harakat bildirishini hamda shaxs va zamon grammatik ma'nolarini bildiruvchi shakllarga ega bo'lishini quyidagicha bayon qiladi: «Har bir fe'l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradir». Fe'ning bu uch jihati uning uch «butoq'i» sanaladi. Shu uch butoqning o'zgarishiga qarab, fe'llar turli o'zgarishlarga uchrashi ko'rsatiladi. «Harakat» tushunchasi «ish» atamasi bilan, «shaxs» tushunchasi «ishlovchi» atamasi bilan nomlanadi. Masalan, «Ish ishlovchi tomonidan ishlansa, «men yozdim» deyiladi. Eshituvchi tomonidan bajarilsa, «sen yozding» deyiladi»,— deb bayon qilinadi.

Fe'ning shaxs grammatik kategoriyasi olti shaklni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi va bu olti shaklni quyidagi olti raqam bilan ifodalashni ma'qul ko'radi:

B i r l i k

K o ' p l i k

- 1 — yozdiyozdik
- 2 — yozdimyozdingiz
- 3 — yozdingyozdilar

Shuningdek, muallif fe'lni bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga ajratadi. Bo'lishsiz fe'llar -ma qo'shimchasi orqali hosil bo'lishini ko'rsatadi:

	Bo'lishli	Bo'lishsiz
1	— keldi	kelmadi
2	— keldim	kelmadim
3	— kelding	kelmading
4	— keldilar	kelmadilar
5	— keldik	kelmadik

Shunday qilib, Fitrat fe'lning shaxs, son, bo'lishli bo'lishsizlik va zamon kategoriyalariga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi. Shaxs paradigmasida birinchi raqam bilan III shaxsning berilishi ham xarakterlidir. Bu o'rinda muallif fe'lning shaxs ma'nosini ifodalovchi ko'rsatkichga asoslanadi. Xuddi otlarda kelishiklarning bosh shakli (nol shakli) birinchi o'rinda berilgani kabi, fe'llarning shaxs paradigmasida ham I va II shaxs qo'shimchalari qo'shi-lishiga asos bo'lgan shakl bosh shakl (nol shakl) sifatida birinchi raqam bilan beriladi. Fitrat zamon ma'nosini ifodalashiga ko'ra, fe'lni uch zamonga ajratadi: so'nggi zamon, hozirgi zamon va o'tgan zamon. Bu fe'llarning har qaysisiga alohida-alohida to'xtaladi. «So'nggi zamon» fe'llari, o'z navbatida, buyruq, kelajak, shart, o'tinch, qo'zg'atish fe'llariga bo'linadi. Fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz «tub shakli» buyruq fe'llari deb yuritiladi. Masalan, kel, ket; kelma, ketma kabi. Bu fe'llarning shaxs-son o'zgarishiga ko'ra olti shaklga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Buyruq ma'nosini kuchaytirish maqsadida II shaxs fe'l o'zagiga -gil, -g'il qo'shimchalari ham qo'shilishi mumkinligini ko'rsatadi: kel-kelgil, ketgil, borg'il kabi. Shuningdek, -ay, -ayin qo'shimchasi qo'shilsa ham xuddi shu ma'no ifodalanishi aytiladi: borayin, kelayin, kelmayin, ko'rayin kabi. Lekin bu ma'noning faqat I

shaxs shakli haqida fikr yuritiladi. Qolgan ikki shaxs shakllari nazardan chetda qoladi. -(a)r va -(a)jak shakllari qo'shilgan fe'llar kelajak fe'llari hisoblanadi va har ikki shaklning shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik paradigmasini beradi:

- | | | |
|---|-----------------------|-----------------------|
| 1 | — yozar, yozmas | — yozarlar, yozmaslar |
| 2 | — yozarman, yozmasman | — yozarmiz, yozmasmiz |
| 3 | — yozarsan, yozmassan | — yozarsiz, yozmassiz |

shuningdek,

- | | | |
|---|-----------------------------|------------------------------|
| 1 | — yozajak, yozmayajak | — yozajaklar, yozmaya-jaklar |
| 2 | — yozajakmen, yozmayajakmen | — yozajakmiz, yozmaya-jakmiz |
| 3 | — yozajaksen, yozmayajaksei | — yozajaksiz, yozmaya-jaksiz |

-gay, -g'ay qo'shimchasi qo'shilgan fe'llar o'tinch fe'llari, -sa qo'shimchasi qo'shilgan fe'llar shart fe'llari, shart fe'llariga -chi qo'shilgan fe'llar esa qo'zg'atish fe'li hisoblanadi. Masalan, yozsa-chi, yozmasam-chi kabi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Fitrat fe'l- ning mayl, nisbat kategoriyalarini alohida ajratmay, zamon kategoriyasi tarkibida o'rganadi.

Hozirgi zamon fe'llari -yotir, -moqda hamda (y)dir, - (a)dir qo'shimchalari yordamida ifodalanishi bayon qilinadi va har qaysi shaklning shaxs-son bo'yicha paradigmasini beradi. Masalan,

- | | |
|---|--------------------------------------|
| 1 | — yozadir, yozayotir, yozmoqda (dir) |
| 2 | — yozaman, yozayotirman, yozmoqdaman |
| 3 | — yozasan, yozayotirsan, yozmoqdasan |

O'tgan zamon fe'llari ham o'z ichida uch turga bo'linadi:

- 1) ko'rilgan fe'l;
- 2) eshitilgan fe'l;

3) hikoya fe'li.

-di qo'shimchasi yordamida ifodalangan o'tgan zamon ma'nosi ko'rilgan fe'l atamasi ostida beriladi. Masalan, yozdi, yozdim, yozding kabi.

-gan, -g'an, -mish qo'shimchalari qo'shilgan fe'l eshitilgan fe'l hisoblanadi: yozg'on, yozg'onsan; yozmish, yozmishman, yozmishsan.

-(i)b qo'shimchasi qo'shilgan fe'l o'tgan zamon hikoya fe'li sanaladi: yozibdir, yozibman, yozibsan. Fe'llarning nisbat kategoriyasi alohida ajratilmasa ham, lekin bu kategoriya ifodalagan ma'no va uning muayyan shakllari yordamida ifodalanishi haqida ba'zi ma'lumotlar beriladi. Masalan, o'timli fe'llarni o'timsizga, o'timsiz fe'llarni esa o'timliga aylantirish yo'llari haqida fikr yuritilganda, -(i)l qo'shimchasi ishtirok etgan fe'llar majhul fe'l, -(i)n qo'shimchasini olgan fe'l o'zlik fe'l deyilishi ta'kidlanadi. Masalan, yuvildi-yuvindi.

Fitrat fe'ldan anglashilgan harakatning obyekt bilan munosabatining ifodalanishiga ko'ra o'timli va o'timsiz fe'llarga bo'ladiki, bu bo'linish keyingi grammati- kalardan qat'iy o'rin oldi.

U fe'llarni tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma fe'llarga bo'ladi. Qo'shma fe'llarning hosil bo'lishi, ularning imlosi haqida batafsil ma'lumot beradi.

Ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topgan fe'llar qo'shma fe'l sanaladi. Masalan, yoza boshladi. Qo'shma fe'llarda birinchi qism so'zning leksik ma'nosini, ikkinchi qism esa unga turli xil qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Fitrat ifodasi bilan aytganda, «Ma'noning og'irlig'i birinchi fe'lda bo'lib, ikkinchi fe'lning ma'nosi unga «qayd» bo'lib qoladir». Fe'lning barcha kategorial shakllari ikkinchi qismga qo'shilishi ta'kidlanadi.

Qo'shma fe'l ko'makchi qismning qanday ma'no ifodalashiga ko'ra olti turga ajratiladi: 1) boshlov fe'li: yoza boshla, ko'ra boshla kabi.

2) yaqinlash fe'li: ko'ra yozdi, qila yozdi;

- 3) oshiqma fe'li: yozaqol, aytaqol;
- 4) davom fe'li: bora berdi, yoza berdi;
- 5) bo'ldirish fe'li: bora olarman, keta olarman;bo'lmoq, qilmoq, etmak kabife'llar. Bularning otga qo'shilib qo'shma fe'l hosil qilishi aytiladi.Masalan, mumkin bo'ldi, yaxshi etding, do'st tutdim.

Shuni ta'kidlash kerakki, Fitrat oltinchi turdagi qo'shma fe'llarning birikmaga o'xshashligi, lekin undan ot qismi kelishik qo'shimchalari ololmasligi bilan farq qilishini ko'rsatadi. Masalan, mumkin bo'ldi o'rniga mumkinni bo'ldi deb bo'lmaydi.Do'st tutdim bilan do'stni tutdim bir-biri bilan ma'noda farqlanadi.Birinchisi qo'shma so'z, ikkinchisi esa so'z birikmasi.

Qo'shma so'z bilan so'z birikmasini bunday farqlash usuli keyinchalik Ovrupa tilshunosligida keng yoyildi.

Fitrat hozirgi o'zbek tilshunosligida to'liqsiz fe'l atamasi ostida o'rganilayotgan edi, ekan, emish fe'llari, shuningdek esa, emas yordamchilarini ko'makchi fe'llar atamasi ostida o'rganadi.

Ko'rinadiki, Fitrat fe'l haqida ancha izchil ma'lumot beradi.

II BOB. FE'LNING SINXRON TILSHUNOSLIKDA ILMIY TADQIQI

2.1. A.Hojiyev fe'l so'z turkumiga doir qarashlari va darsliklari.

Azim Hojiyev fe'l so'z turkumi bo'yicha bir necha managrafiyalar, maqolalar e'lon qilgan. "Fe'l" "O'zbek tilida ko'makchi fe'llar", "To'liqsiz fe'llar" (1970) singari yirik monografiyalari yaratildi. Muallifning "Fe'l" deb nomlanuvchi yirik monografiyasiga qaraydigan bo'lsak: Monografiyada fe'l yasaliishi, fe'lga xos grammatik kategoriyalar hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazaridan bayon etiladi. Ishda fe'l morfologiyasida eng murakkab, shu vaqtga qadar munozarali bo'lib kelgan hodisalarning mohiyatini ochishga alohida e'tibor berilgan. Fe'l turkumiga oid barcha hodisalarning mohiyatini har tomonlama to'la bayon etish, ularning kelib chiqish asosini va o'zga aloqador hodisalarga munosabatini to'la ochib berish juda katta hajmni talab etadi.³⁷ Monografiyaga berilgan hajm imkoni fe'lga oid ayrim masalalarni (chunonchi, etimologiya masalasini) chetlab o'tishni taqozo qilgan. Monografiyada, iloji boricha, tortishuvli masalalarni hal etishga, biror formaning hali ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan ma'no va boshqa xususiyatlarini to'laroq ochishga ko'proq o'rin berilgan.³⁸

Ishda fe'l yasaliishi, fe'l formalari va ularga xos xususiyatlar hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan yoritilgan. Monografiyada fe'l haqida umumiy ma'lumot berib o'tgan va fe'llarning yasaliishiga to'xtalgan. fe'l yasaliishining affiksatsiya (sintetik) va kompozitsiya (analitik) usullari, fe'l yasovchi vositalar va ularning xususiyati haqida umumiy tarzda ma'lumotlar keltirilgan.

Affiksatsiya usuli (sintetik usul). O'zbek tilida fe'l yasovchi affikslar juda ham ko'p emas. Lekin oz miqdordagi bu affikslar yordamida juda ko'p miqdordagi fe'llar yasaladi.³⁹ Yasama fe'llarning asosiy qismini affiksasiya usuli bilan yasalgan fe'llar tashkil etadi. Shu jihatdan fe'l yasaliishining bu usuli eng mahsuldor usul hisoblanadi.

³⁷ A. Hojiyev, Fe'l. Toshkent; Fan 1973, 3-bet.

³⁸ A. Hojiyev, Fe'l. Toshkent; Fan 1973, 3-bet.

³⁹ A. Hojiyev, Fe'l. Toshkent; Fan 1973, 6-bet.

Affiksatsiya usuli bilan fe'l yasalishi haqida gap borganda, ayrim avtorlar, bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlar bilan bir qatorda, fe'llarning o'zidan ham fe'l yasalishi hodisasi borligini ta'kidlaydilar. Faktlar esa affikslar yordamida o'zbek tilida faqat fe'l bo'lmagan so'zlardangina fe'l yasalish hodisasi borligini ko'rsatadi: ish — ishla, kuch — kuchay kabi⁴⁰

Affikslar yordamida fe'ldan fe'l yasalishi deganda, odatda, harakatning takroriyliги yoki kuchli-kuchsizligini ifodalovchi turtkila, ishqala, kulimsira, ko'karinqira kabi fe'l formalari nazarda tutiladi⁴¹. Muallif ayrim ishlarda fe'lning daraja formalari ham fe'ldan fe'l yasalishi hodisasi sifatida qaralishini aytadi. So'z yasalishi (shuningdek fe'l yasalishi) deganda, qanday usul bilan bo'lsa ham, yangi so'z hosil bo'lishi (yangi so'z yaratilishi) tushunilar ekan, daraja formalarini ham, harakatning miqdoriy belgisini bildiruvchi kulimsira, tortqila, so'linqira kabi fe'l formalarini ham fe'ldan fe'l yasalishi deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki bularda yangi fe'l (yangi so'z) hosil bo'lmaydi⁴².

Monografiyada hozirgi o'zbek tilidagibir qancha affikslar yordamida fe'llar yasalishini ko'rsatadi, ular quyidagilar:

-la affiksi. Bu affiksni fe'l yasovchilar ichida eng mahsuldori sifatida keltiradi. fe'ldan boshqa barcha turkumga oid so'zlardan fe'l yasay oladi. Uning yordamida, otlardan yasalgan fe'llar, asosan, quyidagi umumiy ma'nolarni bildiradi: a) o'zak-negizdan anglashilgan narsa-predmet bilan ta'minlash, shu predmetga ega holatli qilish ma'nosini bildiradi: o'g'itla, moyla, betonla kabi; b) asbob-qurol bildiruvchi otlarga qo'shilganda, shu asbob bilan bajariladigan ishni qilish ma'nosini bildiradi: randala, qaychila, arrala, egovla kabi; v) o'zak-negizdan anglashilgan narsa- predmetni yuzaga keltirish (paydo qilish) ma'nosini bildiradi: urug'la, shonala, mog'orla, bolala kabi⁴³.

⁴⁰ A. Ғуломов, Феъл, Тошкент; 1954, 68-бет

⁴¹ Ҳозирги ўзбек адабий тили (жамоа), Тошкент; 1966, 303-304- бетлар

⁴² А. Ҳожиёв, Феъл. Тошкент; Ған 1973, 5-бет.

⁴³ А. Ҳожиёв, Феъл. Тошкент; Ған 1973, 6-бет.

-lan va -lash affiksi. bu ikki affiksga mutaxassislarning qarashlari bir xil emasligini ko'rsatadi, va ayrim mutaxassislarning ishlarida -lan va -lash fe'l yasovchi maxsus affiks sifatida berilmasligini aytib o'tadi. Fe'l yasovchi mustaqil affiks sifatida berilgan ishlarda uning ma'no xususiyati haqidagi ta'riflar bir xil emas. Bir ishda -lan va -lash affiksi yordamida yasaluvchi fe'llar ma'no jihatdan bir necha turga bo'linsa, boshqa bir ishda bu affikslar yordamida «ayni bir vaqtda ham fe'l, ham fe'lining biror nisbat formasi yasalishi» aytiladi. Bundan tashqari monografiyada yana bir qancha affikslar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu haqda batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun muallifning ushbu monografiyasiga murojaat etishingiz mumkin.

So'z yasalishining Kompozitsiya usuli (analitik usul) xususida asarda shunday deyiladi: Bu usul bilan qo'shma fe'llar yasaladi: javob bermoq, olib kelmoq kabi. Qo'shma fe'llar komponentlarining qanday so'zdan ekaniga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: ot+fe'l tipidagi qo'shma fe'llar (fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lining birikishidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llar) va fe'l+fe'l tipidagi (ikki fe'lining o'zaro birikishidan hosil bo'lgan) qo'shma fe'llar hurmat qilmoq, sotib olmoq kabi.

O'zbek tilshunosligida qo'shma fe'llar masalasigina emas, umuman qo'shma so'zlar masalasi yetarli hal etilmagan. Lekin boshqa turkumdagi qo'shma so'zlarning xususiyatiga nisbatan qo'shma fe'llarning xususiyati juda ham kam o'rganilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek tili morfologiyasidan qo'llanma va darslik vazifasini o'tayotgan ishlarning deyarli hammasida qo'shma fe'llarning ot+fe'l va fe'l+fe'l tipidagi turi borligi qayd etilgan. Lekin qo'shma fe'lining bu ikki turi haqidagi qarashlar bir xil emas.⁴⁴ Ot+fe'l tipidagi qo'shma fe'llar haqida gapirganda, asosan, fe'l bo'lmagan so'z bilan qil (ayla, et) yoki bo'l fe'lining

⁴⁴А. Ҳожиёв, Феъл. Тошкент; Фан 1973, 11-бет.

birikishidan hosil bo'lgan bayon qilmoq, kasal bo'lmoq tipidagi birikuvlarni nazarda tutadi.

Haqiqatdan ham qo'shma fe'llarning ko'pgina qismini qil (et, ayla) yoki bo'l fe'llarining boshqa so'z bilan birikishidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llar tashkil etadi. Lekin muallif shuni alohida takidlaydiki, fe'l bo'lmagan so'zning qil (et, ayla) yoki bo'l fe'li bilan birikishidan hosil bo'lgan har qanday birikuvlar ham qo'shma fe'l bo'lavermaydi. Qil (et, ayla) va bo'l fe'llari bog'lama vazifasida ham keng qo'llanadi. Ular bunday vazifada qo'llanganda, qo'shma fe'l hosil qilmaydi. Qiyoslang: o'qituvchi edi — o'qituvchi — o'qituvchi bo'ladi. Bundagi o'qituvchi bo'ladi birikuvi qo'shma fe'l emas. Chunki o'qituvchi va bo'ladi so'zlarining birikishidan yangi so'z (qo'shma fe'l) hosil bo'layotgani yo'q. Tasdiq qildi, tasdiq bo'ldi birikuvlari esa qo'shma fe'l hisoblanadi. Buni qil va bo'l fe'llarini -la va -lan affikslari bilan almashtirish mumkinligi ham aniq ko'rsatadi: tasdiq qildi — tasdiqladi, tasdiq bo'ldi — tasdiqlandi kabi misollar bilan tavsif beradi.

Demak, **qil** (ayla, et) va **bo'l** fe'llarining fe'l yasash yoki bog'lama vazifasida qo'llanishini farqlash kerak bo'ladi. O'zbek tilida fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lning birikishidan hosil bo'lgan va so'zlar kabi yaxlit bir ma'no ifodalaydigan dam olmoq, ko'ngil qo'ymoq, javob bermoq, imzo chekmoq kabi birikuvlar ham ko'p uchraydi⁴⁵. Bularning qo'shma fe'l yoki turg'un birikma ekanini belgilash ancha qiyin. Ba'zi ishlarda bunday birikuvlar frazeologik birikma deb qaraladi va ularni qo'shma fe'llar qatoriga kiritish mumkinligi aytiladi⁴⁶. Lekin tildagi ikki xil hodisani bir-biri bilan aralashtirish mumkin emas. Biror birikuv qo'shma fe'l bo'lsa, u frazeologik birikma bo'lmaydi va, aksincha, frazeologik birikma bo'lsa, qo'shma fe'l bo'lmaydi⁴⁷. Qo'shma fe'llar ma'no butunligi bilan birga forma butunligiga ham ega bo'ladi. Frazeologik birikmalarda ma'no butunligi bo'ladi, lekin forma butunligi bo'lmaydi. Shunga ko'ra dam olmoq birikuvi yaxlit

⁴⁵ А. Ҳожиёв, Феъл. Тошкент; Фан 1973, 12-бет.

⁴⁶ U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev Hozirgi o'zbek adabiytili, To'kent, 1965, 88-bet. A.G'.G'ulomov Fe'l 76-bet

⁴⁷ U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev Hozirgi o'zbek adabiytili, To'kent, 1965, 88-bet. A.G'.G'ulomov Fe'l 76-bet

bir ma'no ifodalashidan qat'i nazar qo'shma fe'l bo'la olmaydi. Chunki undagi birinchi so'z maxsus grammatik ko'rsatkichlar bilan shakllana oladi: damingni ol kabi.⁴⁸ Ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'luvchi qo'shma fe'llar o'zbek tilida u qadar ko'p emasligi, bunday qo'shma fe'llar ham komponentlari ma'nosidan farqli yangi ma'no ifodalashini quyidagi misollar asosida keltiradi: olib kelmoq, sotib olmoq kabi. O'zbek tili grammatikasiga oid ishlarda qo'shma fe'lning fe'l + fe'l tipidagi turi haqida gapirganda, odatda, yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topuvchi o'qib chiqmoq, kela boshlamoq, qizarib ketmoq kabi birikuvlar nazarda tutiladi va shu tipdagi birikuvlar tahlil qilinadi. Lekin yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlar o'z xususiyatlariga ko'ra qo'shma fe'llardan ham so'z birikmalaridan ham farqlanadi⁴⁹. Bularning qo'shma fe'l (qo'shma so'z) emasligini ko'rsatuvchi asosiy belgilar sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

Qo'shma so'zlarda birdan ortiq so'zning birikuvidan yangi ma'noli boshqa bir so'z hosil bo'ladi. Masalan, tortib olmoq fe'li. tortib va olmoq fe'llaridan farqlanuvchi yangi so'z — qo'shma fe'l. Yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlarda birikuv tarkibidagi so'zlardan farqlanuvchi boshqa yangi bir so'z hosil bo'lmaydi, balki birinchi fe'l o'z ma'nosini saqlaydi va u asosiy (yetakchi) fe'l hisoblanadi. Keyingi fe'l esa unga qo'shimcha ma'no beradi. Shu sababli u ko'makchi fe'l hisoblanadi. Masalan, yozib ber birikuvi yoz va ber fe'llari ma'nosidan farqlanuvchi tamomila yangi ma'no ifodalamaydi, ya'ni bunda yoz va ber fe'llarining birikuvi uchinchi bir fe'lni keltirib chiqarmaydi, balki yoz fe'li o'z ma'nosini saqlaydi, ber ko'makchi fe'li esa yoz fe'lining ma'nosiga qo'shimcha ma'no beradi (yozish harakatining o'zga uchun bajarilishi ma'nosini bildiradi). Yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlarda yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'l o'rtasida yuklamalar qo'llanishi ham mumkin: Gap bilan ovora bo'lib, kechikib ham qolibman⁵⁰ (3. Fatxullin). Muallif fe'lning grammatik kategoriyalari haqida ham to'xtalgan. Turkiy tillar grammatikasiga, jumladan,

⁴⁸ A. Hojiyev "Fe'l" T "Fan" 1973 12-13betlar.

⁴⁹ A. Hojiyev "Fe'l" T "Fan" 1973 o'sha betlar.

⁵⁰ A. Hojiyev "Fe'l" T "Fan" 1973 14-15betlar.

o'zbek tili grammatikasiga oid ishlarda fe'ning quyidagi grammatik kategoriyalarga egaligi ko'rsatilgan:

1. O'timli va o'timsizlik kategoriyasi.
2. Daraja kategoriyasi.
3. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi.
4. Imkonlilik va imkonsizlik kategoriyasi
5. Vid (tus, tarz) kategoriyasi.
6. Mayl kategoriyasi.
7. Zamon kategoriyasi.
8. Shaxs-son kategoriyasi.

O'timli-o'timsizlik haqida bir qancha munozarali jihatlarini yoritishga harakat qiladi:.

Turkiy tillar grammatikasiga, shuningdek, rus tili grammatikasiga oid ishlarda fe'ning o'timli va o'timsizlik kategoriyasi borligi ko'rsatiladi va maxsus sarlavha ostida fe'llarning o'timli va o'timsizlik xususiyatlari bayon etiladi. Biroq fe'l morfologiyasida haqiqatda ham o'timli va o'timsizlik kategoriyasi haqida gapirish mumkinmi, ya'ni haqiqatda ham fe'ning shunday grammatik kategoriyasi bormi. Ma'lumki, so'z turkumiga xos u yoki bu grammatik kategoriya shu turkumga oid so'zlar uchun asosiy, umumiy xarakteristikalarining biri bo'ladi va bu narsa o'z morfologik ifodasiga ega bo'ladi⁵¹. Shunday ekan, fe'llarning o'timli va o'timsizlik kategoriyasi borligi haqida gapirish qiyin. Buning eng asosiy dalili fe'llarning o'timli va o'timsizlikni ko'rsatuvchi formaga ega emasligidir. O'timli va o'timsizlik haqida gapirilgan ishlarning deyarli barchasida ham fe'llarning o'timli-o'timsizlik ko'rsatkichiga ega emasligi aytiladi. Morfologik ko'rsatkich,

⁵¹ O. S. Axmanova. Slovar lingvisticheskix terminov, M., 1966,.191—192-betlar.

ya'ni maxsus grammatik forma yo'q ekan, grammatik ma'no haqida gapirish ham mumkin emas⁵²

So'z turkumiga oid biror grammatik kategoriya shu turkumga oid so'zlarning asosiy, umumiy xarakteristikalaridan biri bo'lishi sababli u ko'pchilik tomonidan albatta seziladi va asosan bir xil tushuniladi. Bunday kategoriyalarni tushunish va tushuntirish ham qiyin bo'lmaydi. Fe'llarda o'timli va o'timsizlik kategoriyasining o'zi yo'qligidan bu «hodisaning» ta'rifi ham ko'pchilik ishlarda bir xil emas. Barcha ishlarda bu hodisa haqida fe'l morfologiyasida gapirilsa ham, ammo ba'zilar uni semantik kategoriya deb qaragani holda, ayrim ishlarda semantik-sintaktik kategoriya deb ta'riflanadi. Muallif o'zbek tilida «semantik kategoriya», «semantik-sintaktik kategoriya» yoki grammatik kategoriya deb qaralishi mumkin bo'lgan «o'timli-o'timsizlik kategoriyasi» yo'q deb hisoblaydi.

«o'timli-o'timsizlik kategoriyasi» haqida gapirganda, fe'llarning «harakat ta'sirining biror obyektga o'tish yoki o'tmasligini bildirishini, «biror predmet — obyektga o'tadigan yoki o'tmaydigan harakatni bildirishini»⁵³ nazarda tutadilar va bu ma'nolarning fe'lning o'zak qismida ifodalanishini aytadilar. Vaholonki, fe'l o'zak-negizlari harakat ta'sirining biror ob'yektga o'tishini ko'rsatmaydi. Masalan, ko'rmoq, o'qimoq fe'llari harakatning biror obyektga o'tishini ko'rsatmaydi, balki harakatning o'zini ko'rsatadi, ya'ni harakatning o'zini bildirishi takidlanadi.

fe'llarning qanday harakatni bildirishiga qarab o'timli va o'timsiz kabi ikki turga bo'linishi masalasini ham asosli deb aytmaydi: Avvalo, «harakatning o'tishi» degan ibora to'g'ri emas. Chunki «harakat o'tdi» deganda, albatta, harakatning biror subyektdan boshqasiga o'tishi, to'g'rirog'i, harakat subyektining o'zgarishi (birov bajarayotgan harakatni boshqa birov bajarishi) tushuniladi⁵⁴. Bu jihatdan fe'llar bir-biridan farqlanmaydi. Bundan tashqari, tushum kelishigi formasidagi so'zni boshqarib kelgan fe'llar bildirgan harakat biror obyektga o'tmaydi. Masalan, *kitobni o'qidi, taxminini aytdi* gaplaridagi o'qi, ayt fe'llari bildirgan harakatning

⁵² A. Hojiyev "Fe'l" T "Fan" 1973 82-bet

⁵³ A.G'ulomov, Fe'l, 53-54 betlar.

⁵⁴ hozirgi o'zbek adabiy tili, (jamoal) Toshkent 1966, 266-bet.

«kitob» va «taxmin»ga «o'tishi»ni tasavvur etish va isbotlash mumkin emas. Ana shu imkonsizlik, qiyinlik ta'sirida bo'lsa kerak, fe'llarni o'timli va o'timsizlik jihatdan farqlashda ularning tushum yoki boshqa kelishikdagi so'zni boshqarib kelishiga asoslanish tavsiya etiladi, ya'ni tushum kelishigidagi so'zni boshqarsa, o'timli fe'l, boshqa kelishikdagi so'zni boshqarsa, o'timsiz fe'l deb qarash kerakligi aytiladi.

Xullas, fe'llar «o'timli va o'timsizlik» deb atalishi mumkin bo'lgan grammatik kategoriyaga ega emas va shu nuqtai nazardan farqni ko'rsatuvchi formaga ham ega emas deya o'z fikrini dalillaydi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'lning besh xil daraja formasi haqida to'xtaladi ular: bosh daraja, o'zlik daraja, orttirma daraja, birgalik daraja va majhul daraja.

O'zlik daraja formasidagi ayrim fe'llarda bajaruvchi harakatning obyekti ham ekanidek, harakat bajaruvchiga qaytadigandek va «o'zini-o'zi» degan ma'no ifodalanadigandek ko'rinadi. Haqiqatda esa bunday bo'lmaydi. Masalan, ko'pgina ishlarda o'zik daraja formasi harakatning bajaruvchiga qaytishi, bajaruvchining harakat obyekti ham ekanini ifodalashi aytilib, yuvinmoq fe'li misol tariqasida keltiriladi. Biroq yuvinmoq formasi «o'zini o'zi yuvmoq» degan ma'noni bildirmaydi. haqiqatdan ham muallifning fikri to'g'ri, Agar shunday ma'no ifodalanadigan bo'lsa, bu harakatning o'zga obyekt ustida bajarilishi yuvmoq formasi orqali ifodalanar edi. bu ma'no esa yuvintirmoq formasi orqali ifodalanadi. O'zlik daraja formasidagi fe'llardan ayrim so'z yoki so'z birikmasining ma'nosiga o'xshash ma'nolar anglashilishi mumkin. Lekin bu ma'nolar daraja formasiga xos umumiy grammatik ma'no bo'lmay, daraja formasiga xos xususiyat va fe'lning leksik ma'nosi ta'sirida kelib chiqadigan ma'no bo'ladi. Juda ko'p hollarda esa o'zlik daraja formasining ma'nosini biror so'z yoki so'z birikmasiga xos ma'noga tenglashtirib bo'lmasligini quyidagi misollar bilan keltiradi:

Misollar: Panshaxasini pichanga sanchib, sopiga suyanib turgan bir yigit: Daromadning yo'lini bilgan odam chorvadan ham tez boyiydi,— dedi (77.

Qodirov).Bir mahal G'ulomjon tuynukdan erinib chiqayotgan tutunga qarab so'zlandi (M. Ismoilij).Ko'ktoshlik bir boy odam yig'ilgan joyda Sanamoyning otasiga yopishdi (P. Qodirov). Birdan bir g'amxo'rlaridan ayrilgan bechoralar ayriliq, xo'rlik alamidan ko'z yoshlarini selsel oqizib yana yo'lga tushdilar (P. Tursun). Birinchi misoldagi suyanib formasi bildirgan ma'noni «o'zini-o'zi» degan ma'noga qiyoslash, ikkinchi misoldagi so'zlandi formasi ma'nosini «o'zicha» so'ziga xos ma'no bilan izohlash mumkin. Lekin keyingi misollardagi yig'ilgan, ayrilgan fe'l formalari bildirgan ma'noni bu yo'l bilan tushuntirib bo'lmaydi. Yana quyidagi misollardagi fe'lning o'zlik daraja formasining ma'nosiga e'tibor bering: Ishonmasangiz qarg'anaylikmi? (S. Zunnunova). So'ng uzun do'nglik ortiga o'tib ko'rinmay ketdi (P. Qodirov).Otilmagan sopqon ham boshga, ham quymichga tegadi (Maqol).Yigit shu gaplarni aytishga aytdi-yu, ko'zini yashirishga joy topolmay qiynaldi.Ovozi titrab yutindi (Said Ahmad). Ro'paradagi ko'rkam uylardan yaxshi kiying a n... ayollar qo'llarida idishlari bilan qozon boshiga qatnab turibdilar (P. Tursun). Davlatbekovning tug'ilgan qishlog'i Bodomzor bu yerdan o'n bir chaqirim pastda (77.Qodirov).

Ko'rib o'tilgan faktlarning hammasidan ma'lum bo'ladiki, o'zlik daraja formasining asosiy xususiyati «harakatning bajaruvchiga qaytishi»ni yoki «bajaruvchining harakat obyekti ham ekanini» bildirish emas⁵⁵. o'zlik daraja formasi obyektli fe'llardan yasaladi va bunda grammatik obyekt tushunchasi yo'qoladi. Boshqacha qilib aytganda, o'zlik daraja formasi obyektli fe'lni obyeksiz fe'lga aylantiradi: artmoq - artinmoq, qiynamoq -qiynalmoq, teshmoq -teshilmoq, so'kmoq -so'kinmoq, kavshamoq -kavshanmoq va b.

Ana shu xususiyatiga ko'ra ayrim fe'llarning o'zlik daraja formasi biror o'timsiz fe'l bilan sinonim bo'lib qolishi ham mumkin: ko'zini tikmoq - tikilmoq - qaramoq.

⁵⁵Shunga ko'ra, bu daraja formasiga nisbatan «qaytim daraja» terminini qo'llash (Hozirgi o'zbek adabiy tili, I, Toshkent, 1966, 270-bet) hech qanday asosga ega emas.

Fe'lning orttirma daraja formasi yasovchilarning ko'pligi bilan ham boshqa daraja formalaridan farqlanib turadi. Ayrim fe'llarning orttirma daraja formasining yasashida ko'rib o'tilgan affikslardan faqat bittasini qo'llash mumkin bo'lgani holda, boshqa bir fe'llarning orttirma darajasini yasashda ularning ikki-uchtasidan foydalanish mumkin bo'ladi: ko'n- ko'ndir; to'l - to'lat, to'ldir - to'lg'iz va b. Ortirma daraja formasining yasashida boshqa darajadagilardan farqli alohida xususiyati bor — bu daraja formasida fe'lga birdan ortiq daraja (orttirma daraja) ko'rsatkichi qo'shilishi mumkin: Tog'dagi cho'ponlarga un-punlarni ro'yxat bilan jo'nattirdi (77. Qodirov). Avliyo chodiri bilan xizmatkorini cho'lda qoldirib: «Shu musicha bolalarini uchirib ketguncha ozor yetkazdirma, ...deb tayinlab ketibdi (77. Tursun). Ortirma daraja formasi obyektli fe'llardan ham, obyeksiz fe'llardan ham yasala oladi: uxla - uxlat, o'qi - o'qit kabi.

Majhul daraja formasi obyektli fe'llardan yasalganda, asosiy e'tibor harakatni kim bajarganligiga qaratilmasligi va bajaruvchini ko'rsatuvchi so'zning qo'llanmasligidan qat'i nazar, harakat bajaruvchisi borligi mantiqan sezilib turadi. Lekin uning sezilish darajasi bir xil bo'lmaydi. Ba'zi hollarda harakat bajaruvchisining borligi va unga' e'tibor juda kuchsiz darajada bo'ladi: Ularning oldilarida esa jingalak sochli, uch-to'rt yashar sap-sariq qizcha po'sti archilmagan sabzi kemirib turibdi (77. Tursun).

Gap tarkibida harakat bajaruvchisini ko'rsatuvchi so'z ishtirok etganda ham u ega vazifasida bo'lmaydi, balki grammatik obyektini bildiradi. Bu so'z tomon yoki taraf so'zi bilan birga qo'llanadi: Otabek tarafidan kutilmagan bu savol uni shoshirdi va nima deb javob berishni bilmay qoldi (A. Qodiriy).

Monografiyada fe'l mayllari haqida, ularning xususiyati va ayrim mulohazali jihatlarini yoritishga harakat qiladi. O'zbek tilida fe'lning «aniqlik mayli», «buyruq-istak mayli», «shart mayli» deb atalib kelayotgan mayl turlari borligi, bu o'rinda faqat «aniqlik mayli» termini va bu maylning xususiyati haqida ba'zi mulohazalarni aytib o'tadi. Fe'lning aniqlik mayli, odatda, harakatning uch zamondan birida haqiqatda ham sodir bo'lishini bildiradigan forma sifatida

ta'riflanadi. Lekin o'zbek tilida shu mayl turiga ishlar, kellar tipidagi gumon ma'nosini bildiradigan forma ham kiritiladi. Bunda «aniqlik» va «gumon» tushunchalari bir-biriga mos kelmay qoladi. Ba'zi turkiy tillarga oid ishlarda maylning bu turiga nisbatan «hikoya fe'li», «xabar shakli» kabi terminlar ham qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin «darak», «xabar», «hikoya» kabi atamalar bu mayl turining o'ziga xos xususiyatini (boshqa mayl formalaridan asosiy farqini) ifodalay olmaydi. Chunki uning boshqa mayl formalaridan farqi darak berish (xabar berish yoki hikoya qilish) emas. Masalan, kelmoqchi, o'rganmoqchi kabi formada ham xabar (darak) bor. Ammo bu forma «aniqlik mayli» deb atab kelinayotgan mayl turiga xos forma emas, ya'ni u 'mayl nuqtai nazaridan keldi, kelyapti, keladi formolari bilan bir gruppaga kirmaydi.

Fe'l bildirgan harakating bajarilishi, albatta, ma'lum bir vaqtda bo'ladi. Demak, harakat vaqt (zamon) tushunchasi bilan aloqador bo'ladi. Fe'l bildirgan harakat obyektiv harakatning tildagi ifodasi bo'lganidek, fe'llardagi zamon ham harakatning bajarilishi bilan aloqador bo'lgan obyektiv vaqtning tildagi ifodasidir. Lekin obyektiv zamonning tildagi ifodasining o'zi grammatik zamon kategoriyasi hisoblanmaydi. Grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Nutq momenti ham subyekt tomonidan belgilanadigan qandaydir vaqt bo'lagi bo'lmay, obyektiv zamonning so'zlovchi gapi, so'zi (nutqi) to'g'ri kelgan bo'lagidir (so'zlash, nutq ham harakat hisoblanadi va uning bajarilishi obyektiv vaqtning biror qismiga to'g'ri keladi). Harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab fe'lning uch xil zamoni farqlanadi: 1) nutq momentigacha bo'lgan harakat — o'tgan zamon; 2) nutq momentida ham davom etayotgan (tugamagan) harakat — hozirgi zamon; 3) nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat — kelasi zamon. Zamon ma'nolari maxsus formalar orqali ifodalanadi va bu formalar fe'lning zamon formolari deb ataladi.

2.2. SH.SHukurovning fe'lga doir ilmiy izlanishlari va mulohazalari

SH. SHukurov fe'l turkumi bo'yicha bir necha monografiyalar yaratgan. Uning "Fe'l tarixidan", (1970) "O'zbek tilida fe'l mayllari taraqqiyoti" kabi monografiyalarida fe'l haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Uning "fe'l tarixidan" nomli monografiyasi o'rxun-enasoy obidalarini, qadimgi uyg'ur tiliga oid matnlar va XI asr yodgorliklari — «Qutadg'u bilig», «Devonulug'otit turk» asarlari bo'lib, unda qadimgi yodgorliklar tilida uchraydigan mayl va zamon formalarining ma'nolari va ularning qo'llanilishidagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, mayl va zamon formalarini yasovchi affikslarning fonetik ko'rinishlariga alohida to'xtalgan. Shu bilan birga, mayl va zamon ma'nosini ifodalovchi fe'l formalarining yasalishi, qo'llanishi va ifodalagan ma'nolariga ko'ra kuzatilgan qadimgi yodgorliklar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga alohida e'tibor berilgan. Ishda XI asr tilshunosi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonulug'otit turk» asarida aytilgan mayl va zamon formalarini va ularning yasalish usullari, ma'nolari, qo'llanilishdagi mahalliy dialektal xususiyatlari haqidagi fikrlardan to'la foydalanilgan.

Buyruq-istak maylining I shaxs birlik formasi ,

Buyruq-istak maylining I shaxs ko'plik formasi .

Buyruq-istak maylining II shaxs birlik formasi,

Buyruq-istak maylining II shaxs ko'plik formasi,

bundan tashqari Zamonlar haqida:

O'tgan zamon fe'lining -dy-di-ty/-ti affiksi bilan yasalgan formasi,

O'tgan zamon fe'lining -duq/-duk-tuq-tuk affiksi bilan yasalgan formasi,

O'tgan zamon fe'lining -yuq/-yyk affiksi bilan yasalgan formasi,

O'tgan zamon fe'lining -mysh/-mish affiksi bilan yasalgan formasi,

O'tgan zamon fe'lining analitik formalarini ,

Buyruq-istak maylining III shaxs formasi,

Shart mayli,

Hozirgi-kelasi zamon shart fe'li,

Shart fe'lining analitik formalarini,

Aniqlik mayli kabi,

“O’zbek tilida fe’l mayllari taraqqiyoti” deb nomlanuvchi monografiyasi o’zbek tilida fe’l mayllari va zamonlari taraqqiyotini o’rganishga bag’ishlangan tadqiqotining davomi bo’lib, bunda buyruq-istak va shart mayllariga aloqador masalalar ko’rilgan. Avtor shu mayllarni ifodalovchi formalarning shakllanishi, tarixiy taraqqiyot prosessida bu formalarning aktivlashib borishi yoki passivlashib borishi, ularda yuz bergan formal hamda semantik o’zgarishlar va uning sabablari kabi masalalarni yoritishga harakat qilgan.

Hozirgi-kelasi zamon Hozirgi-kelasi zamon fe’lining -r (-ar/-ər, -ur/-ur, -ыр/-ır) affiksi bilan yasalgan formasi,

Hozirgi-kelasi zamon fe’lining -yur/-yur affiksi bilan yasalgan formasi,

Hozirgi-kelasi zamon fe’linng -g’алыр/-gəlır affiksi bilan yasalgan formasi,

Hozirgi-kelasi zamon fe’lining bo’lishsiz formasi,

Kelasi zamon,

Kelasi zamon fe’lining -g’ay/-gəy (-qay/-kəy) affiksi bilan yasalgan formasi,
Kelasi zamon fe’lining -gi/-gү (-qi/-kү) affiksi bilan yasalgan formasi,

Kelasi zamon fe’lining -dachы/-dechi (tachы/-techi) affiksi bilan yasalgan formalari haqida ma’lumotlar keltirgan.

Qadimgi yodgorliklar tilidagi buyruq-istak mayli, bu mayl formalarining shaxs-son affikslari bilan tuslanishida ham boshqa mayl formalarining shaxs-son affikslari bilan tuslanishidan farq qiluvchi xususiyatlari haqida misollar keltirib o’tadi.ularning farqli va o’xshash jihatlari yoritiladi. Masalan Buyruq- istak fe’li I shaxs birlik formasi o’rxun-enasoy matnlarida va qadimgi uyg’ur tili yodgorliklarida faqat -айын- әйінshakli uchrashi “Qutadg’u bilig”da bu affiksning qisqa varianti-айы- әйиaffikslarini keyingi xodisa, degan fikrni tasdiqlaydi va o’rta osiyo turkiy tillarida X-XI asrlardan boshlangan deb izohlaydi.

“Qutadg’u bilig” va “devonu lug’otit turk” asarida buyruq istak mayli II shaxs ko’plik formasining ishlatilishi umuman kam uchraydi.so’zumni tutinlar сөзүмнитутунлар (Q.B. 175- bet) ,баринб-баринлар (M.Q 50-51-betlar.)

Mahmud Qoshg’ariyning ko’rsatishicha bu affikslarning ishlatilishida XI asr turk tillari o’rtasida ham ayrim farqlar bo’lgan. Uning yozishicha “ikkitalik va

ko'plik farqsiz birxildir, birlik uchun *-бар* ikkitalik uchun *баринлар* *иккузу* (ikkovingiz boring.), ko'plik uchun *баринлар* *камуг* deyдилар. Tinglovchi yoshi katta hurmatli bo'lsa (*yolg'iz bo'lsa ham*) hurmat yuzasidan ko'plik formasi qo'llanadi. *барин* deyiladi. Aslida buning ma'nosi *баринлар* demakdir.

O'g'uz va qipchoqlar birlikda -бар, ko'plikda барин deyдилар. ular ko'plik qo'shimchasi *-lar/lerni* tushurib qoldiradilar. o'rniga tinglovchi birligida *ңыз/-ңыз(-ыңыз/-иңиз)* qo'llayдилар. Hurmat uchun bir kishiga ham — 3 orttiradilar ular tilida bir kishiga ham, ko'plik ustiga ko'plik qo'llanadi. shu parchada ham kelgan.

Авлаб мэни қ о й м а ң ы з

Айың. айыб ңаймаңыз

Ақар көзүм уш тэңиз

Тэгрә йүрә қуш учар

(*sevimlisiga*aytadi) *meniovlabo'zingizga*sir qilganingizdankeyin, *хо'rlab*ta^{sh}labqo'y^mangiz, *vadagava*foqilingiz, *dengiz*suvlarika^biko'zyoshlarim^daryobo'liboqayotir.ko'zyoshlarimuchidaqushlaru^chibyuribdi.⁵⁶

AsardaShART MAYLI tog'risida quyidagi ma'limotlarni uchratishimiz mumkin:

Qadimgi yodgorliklar tilida hozirgi turkiy tillardagi kabi shart maylining hozirgi-kelasi zamon formasigina mavjud bo'lib, qolgan zamonlari analitik formalar bilan to'ldiriladi. Shu bilan birga, shart fe'lining yasalishi, tuslanishi jihatidan qadimgi yodgorliklar tili hozirgiturkiy tillardan farqlanadi.⁵⁷

Hozirgi-kelasi zamon shart fe'li qadimgi yodgorliklar tilida fe'lining o'zak-negiziga *-sar/-sər* yoki *-sa/-sə* affiksini qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan. *-sar/-sər* va *-sa/-sə* affikslarining ishlatilishida qadimgi yodgorliklari o'rtasida o'zaro farqlangan. Bu farqlar quyidagicha bo'lgan:

a) o'rxun-enasoy matnlarida va qadimgi uyg'ur tili yodgorliklarida *-sar/-sər* affiksi qo'llangan;

b) «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk»da *-sa/-sə* affiksi ishlatilgan.

Bulardan ko'rishimiz mumkinki bu yodgorliklar o'rtasida bir qancha farqlar mavjud ekan, ularni umumiyashtirib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

⁵⁶ Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит турк, II том, 50—51-бетлар.

⁵⁷ Ш. СШукуров, феъл тарихидан, Тошкент, фан, 1970, 28-бет.

1. Hozirgi turkiy tillarda -sa/-sə (-za/-zə va boshqa fonetik variantlari bilan) shaklida qo'llanuvchi hozirgi-kelasi zamon shart fe'li affiksi dastlab -sar/-sər shaklida bo'lgan.

2. «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk» asarlarida shart fe'li affiksining -sa/sə shaklida qo'llanishi -sar-sər formasining -sa/-se formasiga o'tish davri O'rta Osiyoturkiy tillarida X—XI asrlarda tugallanganini ko'rsatadi. Bu davr tilida shart fe'lining ko'rsatkichi -sa/-sə shaklida ekanligi haqida M. Koshg'ariy ham aytib o'tgan.

3. «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk»da shart fe'li affiksining -sa/-sə formasida qo'llangani holda, qadimgi uyg'ur tilining X—XIII asrlarga oid yodgorliklarida ham (masalan, Yuridik hujjatlar) -sar/-sər formasida ishlatilishi shuni ko'rsatadiki, -sar/-sər formasining -sa/-se formasiga aylanish davri turkiy tillarning barchasida birdavrga to'g'ri kelmaydi.

Aniqlik mayli haqida gapirganda qadimgi yodgorliklar tilida aniqlik maylining formalari o'tgan zamon, hozirgi-kelasi zamon va kelasi zamondan tashkil topishi aytib o'tiladi. Bu «zamonlarning» har biri bir necha formaga ega bo'lib, bu formalar qo'llanishida va ma'no ifodalashida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan

Kuzatilgan yodgorliklar tilida **o'tgan zamon** fe'lining -dy/-di-gy/-ti, -duq/-dyk//-tuq/-tyk, -yo'n/-yyk, -мыш/-mish affikslari bilan yasalgan formalari ishlatilgan. O'tgan zamon fe'lini yasovchi -dy/-di//-ty/-ti affiksining jarangli yoki jarangsiz variantda qo'llanishi bobida tekshirilgan qadimgi yodgorliklar o'zaro farqlanadilar. Bujihatdan ularni qo'yidagi uch gruppaga bo'lish mumkin: 1) o'r-xun-enasoy matnlari; 2) qadimgi uyg'ur tili yodgorliklari; 3) XI asr yodgorliklari — «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk». Shu bilan birga, bu gruppalarning har biri o'zichida ayrim farqlarga ega. Shu bilan birga, bu manbalar tilida o'tgan zamon fe'lining er-(əmok) to'liqsiz fe'li yordamida yasalgan analitik formalari ham keng qo'llangan. XI asr tilida o'tgan zamon fe'lini yasovchi -dy/-di-ty/-tiaffiksining jarangsiz [-ty/-ti] variantining ishlatilish hollari va buning sabablari haqida Mahmud Koshg'ariy alohida uqdirib o'tgan. U yozadi: «Nutqni yoqimli qilish uchun oxiri qattiq harflar bilan tugagan o'zaklardan yasalgano'tgan zamon fe'li qo'shimchasidagi -dni-t ga almashtirish to'g'riroqdir. P, Ch, Q, K harflari qattiq harflardir. Bulardan boshqa harflarda o'tgan zamon fe'li qo'shimchasini d bilan yozish ham munosibdir»⁵⁸.

⁵⁸ Махмуд Кошғарий, Девону луғотит турк, II том, Тошкент, 1961, 12-бет.

Qadimgi yodgorliklar tilida **hozirgi-kelasi zamonfe'li** -r (-ar/-dr, -ur/-yr, -ыр/-ir), -yur/-yyr, -g'alыр/-g'aliraffikslari yordamida yasalgan formalar bilan ifodalangan.

Bu fe'lining bo'lishsiz formasi -maz/-maz (-mas/-mas) affiksi bilan yasalgan. Kuzatilgan qadimgi yodgorliklar tilida hozirgi zamonma'nosini ifodalash uchun maxsus formalar bo'lmagan, ya'ni hozirgi turkiy tillardagidek, konkret hozirgi zamon formallari mavjud emas. Bu manbalarda hozirgi zamon ma'nosini ham hozirgi-kelasi zamon fe'li formallari yordamida ifodalangan.

Kelasi zamon qadimgi yodgorliklar tilida kelasi zamon fe'lining -g'ay/-gəy (-qay/-key), -g'u/-gy (-qu/-ky) va -dachы/-dəchi (-tachы/-təchi) affikslari bilan yasalgan formallari qo'llangan. Shu bilan birga qadimgi yodgorliklar tilida kelasi zamon ma'nosini ifodalash uchun, yuqorida ko'rganimizdek, hozirgi-kelasi zamon fe'li formalaridan ham foydalanilgan. Qadimgi yodgorliklar tilida hozirgi zamonma'nosini ifodalash uchun maxsus formalar bo'lmagan, ya'ni hozirgi turkiy tillardagidek, aniq hozirgi zamon formallari mavjud emas. Bu manbalarda hozirgi zamon ma'nosini ham hozirgi-kelasi zamon fe'li formallari yordamida ifodalangan. Qadimgi uyg'ur tiliga oid matnlarning ayrimlarida, shuningdek, «Devonu lug'atit turk»da hozirgi zamon ma'nosida turur (alu turur) tipidagi forma ham qo'llangan.

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining -yur/-yyr affiks bilan yasalgan formasi ham mavjud bo'lib kuzatilgan yodgorliklarning deyarli hammasida uchrashini ko'rishimiz mumkin. Shu narsani olim alohida takidlaydi, -yur[-yyr affiksi faqat unlibilan tugagan fe'llarga qo'shiladi. M a s a l a n: bashlayur,

ishlə-yyr, oqы-yur, yorы-yur, tdni-yyr kabi. Kuzatishlaricha, -yur/-yyr affiksi unli bilan tugagan fe'llarga qo'shib, hozirgi-kelasi zamon fe'lini yasovchi -r affiksining fonetik varianti, to'g'rirog'i, uning qadimgi ko'rinishi bo'lgan. Bu haqda «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalining 1963 yil 4-sonida e'lon qilingan «-Yur/-yyr formasi haqida» nomli maqolasidam batafsil ma'lumotlar keltirib o'tgan. Bu fikrni bir necha misollar keltirish orqali isbotlab bergan:

1) o'rxun-enasoy matnlarida va qadimgi uyg'ur tili yodgorliklarida unli bilan tugagan fe'llardan hozirgi-kelasizamon fe'lini yasashda asosan -yur/-yyr affiksi qo'shilgan.

XI asr yodgorliklari bo'lmish «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk»da esa unli bilan tugagan fe'llardan hozirgi-kelasi zamon fe'lini yasashda ba'zan -yur/-yyr affiksi qo'shilsa, ba'zan -r affiksi qo'shilgan. va bir qancha misollar keltirib qiyoslangan: QB yo'r/-yyr: tənırlə-yyr, tə-yyr, yara-yur, bdzy-yyr, yo-yyr, kyche-

yʻyr, chogʻ-la-yur;.-r: qʻyuna-r, yaŋqula-r, bashla-r, ishle-r, td-r, oyna-r, tiŋlo-r, oŋy-r, agʻyrla-r, MQ — -yur/-yʻyr: kʻrkʻʻ-yʻyr, dʻmgʻʻ-yʻyr, , ʻshi-yʻyr, yavra-yur, savry-yur -r: ɳayna-r, ʻmlʻ-r, imlʻ-r, bozla-r

Hozirgi-kelasi zamon feʻlining -gʻalʻr/-gelir affiksi bilan yasalgan formasi haqida ham asarda maʼlumotlar keltirilgan boʻlib unda «Qutadgʻu biligʻ», «Devonu lugʻotit turk» va qadimgi uygʻur tili yodgorliklarida qoʻllangan variantlari keltirilgan. Oʻrxun-enasoy matnlarida bu forma uchramaydi. Bu affiksning -gʻalʻr varianti qattiq oʻzakli feʻllarga, -gʻalʻr varianti yumshoq oʻzakli feʻllarga qoʻshiladi: bar-gʻalʻr, kel-gelir kabi. Gʻ bilan tugagan feʻllarga -qalʻrshaklida qoʻshiladi: agʻ-qalʻr kabi. Kuzatilgan yodgorliklarda bu forma har uchala shaxsning birligida uchraydi. I va II shaxs birligi -mʻn, -sʻn affikslari bilan yasaladi, III shaxs birligi uchun qoʻshimcha orttirilmaydi. M a s a l a n: bargʻalʻr-mʻn (MQ II, 70), turgʻalʻr-mʻn (MQ II, 71), kirgʻalʻr-sʻn (Uygʻ. IV), qalgʻalʻr (QB, 45-a), kʻlgʻalʻr (QB, 45-a).

Kelasi zamon feʻlining -gay/-gey (-qay/-key) affiksi bilan yasalgan formasi qadimgi uygʻur tili yodgorliklari va «Devonu lugʻotit turk», ayniqsa, «Qutadgʻu biligʻ» tili uchun xarakterli boʻlib, oʻrxun-enasoy matnlarida uchramaydi.

Bu affiksning -gʻay, -gey, -kay, -kzy tarzida turli variantlarda kolnshi shu affiksii qabul qilgan feʻl oʻzagining qattiq yoki yumshoqligiga, shuningdsk, feʻl oxiridagi undosh tovushniig jarangli yoki jarangsiz boʻlishiga bogliq. Bu affiks qattiq oʻzakli feʻllarga -gʻay, yumshoq oʻzakli feʻllarga -gey shaklida qoʻshiladi. Masalan: bar-gʻay, bol-gʻay, toqʻy-gʻay, qutad-gʻay, achʻyl-gʻay, yorʻy-gʻay, yara-gʻay, tut-gʻay, tapnu-gʻay, tayan-gʻay, qʻyl-gʻay, tusul-gʻay, bayu-gʻay, qoz-gʻay; bʻr-gey, ʻvʻr-gʻey, tagʻr-gey, yʻtil-gʻey, sʻzlʻ-gey, yegʻey, kechʻr-gey, yet-gey, tiril-gʻey, kʻy-gay, kʻl-gʻey, elt-gʻey, ʻtʻyn-gey, kuzez-gey, tilʻ-gʻey, kʻn-gey. Gʻ bilan tugagan qattiq oʻzakli feʻllarga -qay shaklida, Iʻ bilan tugagan yumshoq oʻzakli feʻllarga -key shaklida qoʻshiladi. M a s a l a n: sagʻ-qay, agʻ-qay; teg-key, eg-key. Koʻrinadiki, -gʻay/-gey (-qay/-key) affiksi qadimgi yodgorliklar tilida asosan -gʻay/-gey shakllarida qoʻllangan boʻlib, uning -qay/-key shakllarida kelishi ayrim feʻllargagina xosdir.

Xulosa

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki har bir tilning o`ziga yarasha tadqiq etish uchun dolzarb muammolari bordir. Shularni aytishimiz o`rinliki bu mavzuni tadqiq etish davomida o`zim uchun juda kerakli ma`lumotlarni bilib oldim. Fe'l so'z turkumi va undagi ayrim o`ziga xosliklar ayniqsa formalari va funksional shakllari haqida atroflicha ma`lumotlarni imkon qadar tadqiq etdik. Ushbu mavzu qadimdan tilshunoslarni qiziqtirib kelgan va bu xususda o`ziga yarasha amaliy ishlar qilinganligini guvohi bo`lamiz. Aslida o`zbek tilshunosligi o`zining uzoq tarixiga ega. Tilshunoslik sohasida qalam tebratgan allomalarimiz o`zlarigacha bo`lgan jahon olimlarining ilmiy merosidan bahramand bo`lishlari bilan birga, jahon tilshunosligining ravnaqi uchun ham o`zlarining munosib hissalarini qo`shganlar.

Bizga ma`lumki fe'l so'z turkumi bo'yicha juda ko'p ishlar qilingan. Buni biz X-XI asrlarda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lo'g'atit turk", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarlarida, XIV-XV asrlarda esa A.Navoiyning "Muhokamat ul lug'atayin", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlarida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari XX asrda Abdurauf Fitratning fe'l so'z turkumi bo'yicha o'quv qo'llanmalari va darsliklarini ko'rishimiz mumkin.

A.Hojiyevning fe'l so'z turkumiga bag'ishlangan bir qator "Fe'l" "O'zbek tilida ko'makchi fe'llar" "to'liqsiz fe'llar", monografiyalari, maqolalari, M.Sodiqovanning "fe'l stilistikasi", Sh.Shukurovning "fe'l tarixidan" "O'zbek tilida fe'l mayllari taraqqiyoti", Sh.Rahmatullayevning "o'zbek tilida fe'l zamonlari taraqqiyoti", "O'zbek tilida fe'l frazemalarining bog'lashuvi", Usmon Sanaqulovning fe'l so'z turkumi haqidagi maqolalarini kiritishimiz mumkin.

Hozirgi turkiy tillarda mayl va zamon formalarini o'rganishga bag'ishlangan ayrim maqolalardan tashqari monografiyalar yaratilganligiga qaramasdan, bu masala chalkash va munozaralidir. Mayl va zamon formalari turli mualliflar tomonidan turlicha klassifikasiya qilinib, har xil nomlar bilan ataladi. Turkologiyada mayl va zamon formalari tarixi yetarli darajada o'rganilmagan. Qadimgi yodgorliklar tilida iste'molda bo'lgan mayl va zamon formalarini o'rganish sohasida D. M. Nasilovning qadimgi uyg'ur tiliga oid matnlardagi indikativ formalari analiziga bag'ishlangan nomzodlik' dissertasiyasidan tashqari monografik ish yaratilmagan. V. V. Radlov, P. M. Melioranskiy, Q. Brokkelman, A. Fon Gaben, I. A. Batmanov, V. M. Nasilov, S. M. Mutallibov, A. M. Shcherbak, E. I. Fozilov va boshqa avtorlarning qadimgi yodgorliklar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarida esa tekshirilayotgan manbalar tilida

uchraydigan mayl va zamon formalari haqida boshqa grammatik hodisalardan tashqari umumiy ma'lumotlar berilgan.

O'tgan asrimizning 50 yillarida o'zbek tilshunosligining barcha ilmiy kuchlari birinchi ilmiy o'zbek tili grammatikasini yaratishga safarbar qilindi. Bu yillarda «Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar» rukni ostida o'zbek tilining barcha sathlari bo'yicha bir nechta risolalar e'lon qilindi. Mualliflarning bunday maqsadlari va erishgan natijalari asarning so'z boshisidayoq bayon qilinadi. U yerda ta'kidlashlaricha, har bir hodisani bevosita til materiallaridan kelib chiqib izohlashga, hodisalarning haqiqiy mohiyatini ochishga erishildi. Bu narsa yangi-yangi ilmiy xulosalarga erishish bilan birga, ayrim hodisalarning hozirgacha bo'lgan talqini bilan endigi talqini o'rtasidagina emas, shuningdek, ularning eski atamasi bilan yangi atamasi o'rtasida ham ma'lum nomuvofiqlik kelib chiqadi»

Bu jihatdan asarning «Ot» va «Fe'l» qismlarida xuddi ana shunday katta o'zg'arishlar ro'y berdi. Xususan, otlarda son, egalik kategoriyasining ifodalanishi shu darajada mukammal, shu darajada o'zbek tili materiallariga asoslanib, o'ziga xos tomonlarini chuqur yoritib berildiki, u turkologiya fanida ot turkumiga bag'ishlangan eng sara asar bo'lib qoldi.

Shuningdek, fe'l qismida ham ko'makchi va to'liqsiz fe'llarning vazifalari o'zbek tilining boy materiallariga asoslanib chuqur tahlil etildi. Shu davrga qadar fe'lning grammatik kategoriyalari sirasida qaralib kelinayotgan bir qator kategoriyalar o'zbek tiliga xos emasligi (masalan, «vid» kategoriyasi, «o'timli-o'timsizlik» kategoriyasi) bayon qilindi va ular o'zbek tilining grammatik kategoriyalari sirasidan chiqarib tashlandi. So'zning grammatik shakli va grammatik kategoriyalari haqidagi tadqiqotlar keyinchalik o'zbek tilining materiallari asosida yana ham chuqurlashtirildi. So'z o'zgarishi va shakl yasalishi kabi so'zning grammatik shakllarini ikki guruhga ajratishga hech qanday asos yo'q ekanligini ta'kidlagan, hozirgi o'zbek tilidagi grammatik shakl va grammatik kategoriyalarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus asarlarning maydonga kelishi o'zbek ilmiy morfologiyasining yanada rivojlanishiga olib keldi.

Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni o'rganish, ular yaratgan olamshumul ilmiy kashfiyotlarni ro'y-rost bayon qilish imkoniyati faqat mustaqillik tufayligina vujudga keldi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan holda o'tmish madaniy merosimizni sinchiklab o'rganish, ajdodlarimizning dunyo tilshunosligiga qo'shgan xizmatlarini faxrifiyor tuyg'usi bilan keng omma o'rtasida targ'ib va tashviq qilish har bir o'zbek ziyolisining eng shavqli-zavqli ishiga aylanmog'i lozim.

Shartli qisqartmalar

DLT-Mahmud Qoshg'ariy . Devonu lug'otit turk.

DH- Ahmad Yassaviy. Devoi hikmat

MN- Xorazmiy. Muhabbatnoma

Taf.- Tafsir

O'N- O'g'uznoma

QB- Yusuf xos Hojib.Qutadg'u bilig.

HH- Ahmad Yugnakiy. Hibat-ul haqoyiq

FSH- Navoiy. Farhod va Shirin

MT- Navoiy. Muhokamat ul lug'atayn

QR- Qissasi Rabg'uziy

Lut.- Lutfiy

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T. 2002.
2. O'rinboyev B, Aliyev A, Tursunov U. O'zbek adabiy tili tarixi. T. 1995
3. Aliyev A, Sodiqov K, O'zbek adabiy tili tarixidan.T. 1996. 4.
4. To'ychiboyev B. O'zbek tili tarixining davrlari. T. 1996. 5.
5. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov. O'zbek tiliining tarixiy grammatikasi. T. 2009.
6. Махмуд Қошғарий, Девону луғотит турк, II том,
7. Ш. Шукуров, феъл тарихидан, Тошкент, фан, 1970,